

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi

O‘zbekiston Davlat san’at va madaniyat instituti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası

“5111000-kasb ta’limi” yo‘nalishi

**“ZAMONAVIY TA’LIM VOSITALARI ASOSIDA KASB-HUNAR
KOLLEJLARI O‘QUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI
TAKOMILLASHTIRISH”**

mavzuidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: 4-kurs talabasi Jabbarova Yulduz

Ilmiy rahbar: p.f.n.dotsent., Z.H.Qosimova

Kafedra mudiri: p.f.n.dotsent., Z.H.Qosimova

Mazkur bitiruv malakaviy ishi kafedraning 20_ yil ____ dagi ____ -sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Toshkent—2014

Mundarija

Kirish	3
---------------------	----------

I.	Bob. Ta'lim-tarbiya vositalari orqali o'quvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy asoslari
-----------	---

1.1.	Zamonaviy ta'lim metodlari, vositalari va ularning turlari	9
------	--	---

1.2.	Zamonaviy ta'lim-tarbiyaning tashkiliy shakllari	20
------	--	----

II.	Bob. Zamonaviy ta'lim vositalari asosida kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning amaliy ahamiyati
------------	--

2.1.	Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish ishlari va ularning bosqichlari	36
------	---	----

2.2.	Zamonaviy ta'lim vositalari orqali o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish uslubiyoti	47
------	---	----

Xulosa.	64
---------------------	-----------

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.	66
---	-----------

Ilovalar.	70
-----------------------	-----------

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: Ma'lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi uning fuqarolarining aqliy va ahloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Zero, jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov inson uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlari ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir-deb juda to'g'ri aytgan edi. Chunki xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyaning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o'tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo'lib qoldi.

Mana shu ma'noda bugungi mustaqillik sharoitida kadrlar tayyorlashning milliy modelini ro'yobga chiqarish, har tomonlama kamol topgan, jamiyat hayotiga moslashgan ta'lim-tarbiyani ongli ravishda qabul qila oladigan davlat, jamiyat va oila oldida javobgarlik hissini tuya oladigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutish bilan birga ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishidan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviyat va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish maqsadida 1997-yil Oliy Majlisning IX sessiyasida "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi" qabul qilindi.¹Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma'rifatga talpinadi.Dastlabki saboqni u maktabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarga ta'lim berish ularni o'qitish bilan bog'liq ayrim muammolar bugungi

¹Xalq so'zi gazetasi. 2012 yil 18-fevral 35 – son.9-betlar.

kunda kishini o‘ylantirib qo‘yayotgani tabiiy. Chunki zamonaviy shiddatkor jamiyat esa yetuk bilimdon mutaxassis kadrlarga muhtoj bo‘lib boraveradi. Bu ham tabiat qonuni, “Eng muhimi shuni anglab yetishimiz kerakki, kadrlar masalasini hal etmas ekanmiz,sa'yi-harakatlarimiz kutilgan natijalarni berishi, hayotimiz, ma'naviyatimiz o‘zgarishi qiyin kechadi. Demakki, zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimini isloq qilish, zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash ishini yo‘lga qo‘yish faoliyatimizning bosh yo‘nalishi bo‘lmog‘i darkor” - deb ta'kidlagan edi, Prezidentimiz I.A.Karimov.¹

Aytish mumkinki, barkamol insonning shakllanishi uning munosib kasb-korni egallashi jamiyat taraqqiyoti uchun baholi qudrati o‘z hissasini qo‘shib yashashi va shu orqali jamiyatda o‘zligini namoyon etishi ya'ni shaxsning kamol topishi nazarga olinadi. Komillik sari intilish shaxsning kasbiy shakllanishi bilan birgalikda yaxlit holda kechadigan va deyarli bir umr davom etadigan murakkabjarayondir. Keng ma'noda kasbiy shakllanish deganda insonning o‘z aqliy qobiliyatlari jismoniy imkoniyatlari u yoki bu sohaga bo‘lgan layoqatlari, qiziqish va intilishlari, shuningdek qadriyat va dunyoqarashlariga ko‘ra biror bir kasb sohasida ta'lim olish keyinchalik shu sohaga kirishib, moslasha borishi va nihoyat yillar davomida yetuk va malakali mutaxassis yetishishi tushuniladi.

Boshqaruv tizimini va ta'lim sifatini nazorat qilishni shakllantirish, umuman, uzluksiz ta'lim tizimini boshqarish va uni amalga oshirish – davlat ta'lim siyosatining, kadrlar tayyorlash milliy modeli va dasturining ustuvor yo‘nalishlaridandir. Ilmiy tadqiqotlarning mustaqil yo‘nalishi ham fanning dolzarb vazifalaridan biridir. Ta'lim sifatini boshqarish – yechimi turli bosqichlarda: davlat, idoraviy, tarmoqlararo, tarmoq ichida, hudud, ta'lim muassasasi darajasida amalga oshiriladigan murakkab, ko‘p vazifali, ko‘p qirrali muammodir. O‘zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirish muammosi keyingi yillarda dolzarblashdi. Me'yoriy hujjatlarga tegishli tushunchalarning kiritilishi, shuningdek, ta'lim sifatini nazorat qilishni ta'minlaydigan institutsional mexanizmlarning o‘sishi va tendensiyaning yaqqol ifodasi bo‘lib hisoblanadi.

¹Xalq so'zi gazetasi. 2012 yil 18-fevral 33 – son.5-6 betlar.

Haqiqatda esa, ta'lim sifatini oshirish muammosini qo'yilishi nafaqat ta'lim tizimini o'zgartirishni, balki birinchi navbatda, jamiyatda tub o'zgarishlar bo'lishini, texnika va texnologiyaning rivojlanishini taqozo etmoqda.

Sifatni boshqarish jarayoni mavjud, lekin uning strategik maqsadlarga ta'siri past darajada. O'zbekiston Respublikasi oily ta'lim muassasalaining barchasida o'quv jarayonini boshqarish xizmati, ilmiy tadqiqot bo'linmalari ham mavjud. Biroq, ularning ko'pchiligida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ish uslubi hamda vazifalari faqat nazorat qilish shaklidir. Eng yaxshi xorij universitetlarining faoliyati bo'yicha to'plangan materiallar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasasining o'z – o'zini tekshirish va o'z-o'zini tahlil qilish amaliyoti ta'lim sifati nuqtai nazaridan qaraganda doimiy bo'lishi kerak.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi amaliyotida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan kengroq foydalanilmoqda. Respublikamizda ham bu borada bir qator samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Misol uchun, kadrlarni malakasini oshirish institutlari faoliyatini keng yo'lga qo'yilganligi va u yerda pedagoglarda yangi pedagogik texnologiyalar bo'yicha yetarli bilimlarni berilayotganligidir. Biroq, shuni qayd etish lozimki, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga tadbqiq etilishi keng tus olishi lozim. Ayni vaqtda bu sohada muayyan muammolar ham mavjud. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimida muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinayotgan pedagogik texnologiya tamoyillaridan og'ishmagan holda, majmualar nazariyasining barcha qonuniyatlaridan kelib chiquvchi va Respublikadagi ijtimoiy-pedagogik sharoitni hisobga olib, hududdagi professor-o'qituvchilar va pedagoglarning ma'rifiy mentalitetidan kelib chiqqan holda, Respublikamiz pedagoglar jamoatchiligiga tushunarli bo'lgan pedagogik texnologiyaning zamonaviy o'zbek milliy modeli yaratildi. Bu xususida Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlagan nutqlarida pedagogik texnologiyani ta'lim tizimidagi yangiliklar jumladan, yangi pedagogik

texnologiyalarni shunday ko‘chirib olmasdan, balki xalqimiz uchun tushunarli va mentalitetimizga xos bo‘lgan o‘zbek milliy mentalitetini yaratilganligini alohida ta’kidlab shunday dedilar: “Bizning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan Dastur – bu boshqa modellarni qandaydir takrorlash yoki ulardan nusxa ko‘chirish emas, aksincha, birinchi navbatda, rivojlangan demokratik davlatlarda to‘plangan tajribani o‘zida mujassam etgan va ayni paytda shiddat bilan o‘zgarib borayotgan hozirgi zamon talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan dasturdir”.¹

Lekin pedagogik texnologiyani ta’lim jarayoniga tadbig‘ining keng quloch yoyish biroz qiyin kechmoqda. Chunki pedagogik faoliyatda yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish va uni prinsiplari asosida darsni tashkil o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligini yanada oshirish zamonaviy o‘quv vositalar orqali darslarni tashkil qilish hozirgi paytda pedagoglar oldida turgan muhim masalardan biri hisoblanadi. Chunki ta’lim tizimida zamonaviy o‘quv vositalaridan foydalanish bir qancha muammolarga duch kelinmoqda. Jumladan yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish va uni prinsiplari asosida darsni tashkil qilish borasida pedagoglarda yetarli darajada tajribani yo‘qligi bunga sabab bo‘lmoqda

Chunki, jamiyatimizni taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi uchun, aholi ta’limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida eng ilg‘or pedagogik tajribalardan foydalanish zarur.

Mana shu kabi muammolarni hal etishda quyida e’tiboringizga havola etilayotgan bitiruv malakaviy ishi ham bir qo‘llanma bo‘lsa ajab emas.

Ayni paytda fan-texnika taraqqiyotining o‘ta rivojlanganligi natijasida axborotlarni keskin ko‘payib borayotganligi ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi o‘qituvchidan yangi pedagogik texnologiya tamoyillariga asoslangan holda darsni tashkil etishni talab qiladi. Misol uchun, o‘quv jarayonida vujudga kelgan ammo oldindan rejalashtirilmagan vaziyatni boshqarish va samarali natijaga erishish uchun o‘qituvchi yangi pedagogik

¹“Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” konferensiyasidagi nutqi // Xalq so‘zi. 2012 yil 18-fevral 35 – son 1 – 2 betlar.

texnologiya prinsiplarini yaxshi bilishi lozim. Masalan, egiluvchanlik prinsipi yoki faoliyatli yondashuv tamoyili.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: mazkur mavzu bo'yicha qator ilmiy-uslubiy adabiyotlar, risolalar, shuningdek, doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari, bitiruv malakaviy ishlar va magistrlik dissertatsiyalari ishlangan. Kasbiy konsultatsiyalar shaxs xossalari, xususiyatlari, sifatleri tashxis metodlarini ishlab chiqish psixologiya fanining markaziy vazifalaridan biridir. Respublikamizda tashxisning bunday metodikalarini yaratishda ma'lum tajriba to'plangan. Masalan, o'quvchilarni psixologik o'rganish metodikasi (V.A.Tokareva S.Sh.Aytmetova) shaxsni o'rganish metodlari (M.G.Davletshin tahriri ostida B.R.Qodirov va K.B.Qodirovlar ishlab chiqqan) o'quvchilarni kasb tanlash vazifalarini hal etish uchun tashxislash metodlari, R.Z.G'ayniddinov rahbarligida yaratilgan turli kasblar uchun asosli professiogrammalardir. O'zbekistonda kasbiy orientasiya ishi tajribasi bir necha marta umumlashtirilgan "Yoshlarni kasbga yo'naltirishni takomillashtirish muammolari"¹ Respublika konferensiyasi, mehnat ta'lim-tarbiyasi va kasbga yo'naltirishni takomillashtirish masalalari bo'yicha konferensiya, "Yoshlar o'rtasida kasbiy ishlarning psixologik jihatlari" simpoziumi, qishloq yoshlari orasida ommaviy kasbga yo'naltirish ishlarini takomillashtirishga bahishlangan ilmiy amaliy konferensiya, respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi va boshqalarni misol tariqasida keltirib o'tish mumkin. "Inson-kasb-ishlab chiqarish muhiti" tizimi o'z-o'zicha ko'p bosqichli, ko'p qirrali, juda murakkab bo'lib, respublikamizda ushbu tizimda davlat miqyosida inson omiliga g'amxo'rlik qilinadi.

Tadqiqotning maqsadi: zamonaviy ta'lim vositalari asosida kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning asosiy prinsiplari va ulardan foydalanish usullarini amaliyotga tadbiq etish va bu borada ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

¹X.Ibragimov, Sh. Bdullayeva. Pedagogika nazariyasi.

- ta'lim tizimida yanada samarali natijaga erishish uchun kam vaqtda ko'proq sifatli bilim berish usullaridan foydalanish;

- yuqori natija beruvchi o'qishni ta'minlash; o'qituvchilarda zamonaviy ta'lim vositalari orqali o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligining asl mohiyati haqida tushunchalarni shakllantirish;

- darsni shunga mos ravishda tashkil etishni amalga oshirish.

Tadqiqot obyekti:-akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning ta'lim jarayonida zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: ta'lim jarayonida zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish mazmuni, shakllari va usullari.

Tadqiqotning metodologik manbaalari:O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, Kadrlar tayyovlash milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim-tarbiya to'g'risidagi ta'limoti hamda ilg'or pedagogik texnologiyalarga oid XX – XXI asrlarda yaratilgan ta'limotlar tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari - mavzuning mazmun-mohiyatini ochishda yangi pedagogik texnologiyada ko'rsatilgan metodlardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishini ilmiy yangiligi: pedagogik texnologiyalarni vujudga kelish tarixi asoslandi, zamonaviy ta'lim vositalarining tasnifi nazariy asoslandi, zamonaviy ta'lim vositalarining prinsiplariga asoslangan o'quv mashg'ulotlarini mohiyati, mazmuni, yangi pedagogik texnologiyaga asoslangan o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishning metodik asoslari ko'rsatildi.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, agarda zamonaviy ta'lim vositalari orqali o'quvchilarda kasbiy tayyorgarligining takomillashuvini amliyyotga joriy etish bu pedagoglardagi ba'zi bir tushunarsiz bo'lgan holat yoki jummalarni to'liq anglab yetilishiga olib keladi. Chunki bu yerda adabiyotlarda keltirilgan prinsiplar va tamoyillr jamlanib barchasi sodda misollar orqali keltirilgan. Ushbu bitiruv malakaviy ishidan muammoga oid ma'lumotlar, dars ishlanmasi, ma'ruza matni sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi tarkibiy tuzilishi: kirish, ikki bob to'rt paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalarni o'z ichiga olgan.

I. Bob. Ta'lim-tarbiya vositalari orqali o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy asoslari

1.1. Zamonaviy ta'lim metodlari, vositalari va ularning turlari

O'qitish metodi deganda ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati tushuniladi. O'qitish usullari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi. O'qitish usullari har ikkala faoliyatning: a) o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish; b) o'quvchilar tomonidan berilayotgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida qo'llanadigan yo'llarni o'z ichiga oladi. Ta'lim berish o'qituvchidan izlanishni, pedagogik mahoratni talab qiladi. Ilmiy salohiyati boy bo'lgan ustozgina mavzuni talabalarga mahorat bilan etkazib beradi. Mavzuning maqsadiga qarab, ta'lim metodlarini tanlay biladi, kerakli vositalardan o'z o'rnida foydalaniladi.

Ta'lim metodi ta'limning maqsadi va vazifalariga bog'liq. Metodlar o'quvchilarning yoshiga ta'limning mazmuniga va funksiyasiga qarab tanlanadi.

Metodlarni har qanday muammoni uzatish va qabul qilish harakteriga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin:

Ta'lim metodlari

- So'z orqali ifodalanadigan metodlar
- Amaliy metod.
- Ko'rgazmali metod

Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilarning bilimsaviyasi, o'zlashtirish qobiliyati, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda quyidagi metodlar qo'llaniladi:

- o'qitishning og'zaki metodi;
- o'qitishning amaliy ishlar metodi;

- o'qitishning ko'rgazmali metodi;
- muammoli evristik modellashirish metodi;
- o'qitishning muammoli izlanish va reproduktiv metodi;
- o'qitishning induktiv va deduktiv metodi;
- o'qitishda rag'batlantirish va tanbeh berish metodi;
- o'qitishda nazorat va o'z-o'zining nazorat qilish metodi.
- Metodlar o'z navbatida guruhlariga bo'linadi:¹

Ta'limning og'zaki, suhbat va ko'rgazmalilik metodlari.

O'quv informatsiyasini so'z orqali uzatish va axborotni eshitish orqali qabul qilish metodlariga nimalar kiradi va ularga qanday talablar qo'yiladi?

O'qitishning og'zaki metodlari uch turga: a) o'qituvchining hikoyasi; b) suhbat; v) maktab ma'ruzasiga bo'linadi.

Hikoya usuli boshlang'ich sinflarda ko'p qo'llansa, yuqori sinflarda ma'ruza usuli ko'p qo'llaniladi. Ta'lim mazmuni notanish bo'lsa hikoya va ma'ruza usullari qo'llaniladi.

Ta'lim mazmuni o'quvchiga qisman tanish bo'lsa suhbat usuli qo'llaniladi. Og'zaki bayon qilish usulida har ikkala faoliyatning o'qituvchining bayon qilishi va o'quvchilarning shu bayon qilingan bilimlarini diqqat bilan tinglab ongli va mustahkam o'zlashtirishlari birligiga amal qiladi.

Hikoya maktab ta'lim tizimida eng ko'p qo'llanadigan usul bo'lib, u hamma sinflarda barcha fanlarni o'qitishda, maktab ta'limining hamma bosqichlarida qo'llaniladi. Boshlang'ich sinflarda bu ancha qisqa va aniq bo'ladi, sinflarning o'rta guruhiga kelib hikoya ancha kattaroq hajmda va davomli bo'ladi. Yuqori sinflarda hajmi katta bo'ladi, ma'ruzadagi kabi butun darsni band qilmaydi.

Nutq madaniyatini o'stirishda hikoyaning o'rni katta bo'ladi. Shu jihatdan o'qitishning og'zaki usullari ta'limda doimo eng ko'p qo'llaniladi.

O'quv ma'ruzasi - o'quv materialini og'zaki bayon qilish uchun muljallangan. Uning hajmi hikoyadan katta bo'ladi. O'quv ma'ruzasi dars yoki mashg'ulotning barcha qismini egallab oladi.

¹Ziyomammedov.B. M.Tojiyev. Pedagogik texnologiya zamonaviy o'zbek milliy modeli.-T.

Ma'ruza, asosan, yuqori sinflar, kollej va oily o'quv yurtlarida qo'llaniladi. Maktab ma'ruzasi o'tilayotgan mavzuning haqiqiy ilmiy mohiyatini ochib berish, ulardan ilmiy xulosalar chiqarish va umumlashtirish yo'li bilan to'liq mashg'ulot davomida bilimlarni izchillik bilan bayon etishdir.

O'quv materialini og'zaki bayon qilish usuli quyidagi bir qator didaktik qoida va talablarga asosan qo'llaniladi:

1. Bayon qilinayotgan materiallar g'oyaviy jihatdan mazmunli, ilmiy hamda nazariyani amaliyot bilan bog'lashga qaratilgan bo'lishi kerak.
2. Bayon qilinadigan materiallarning tarbiyaviy ahamiyatini to'g'ri ko'rsatish orqali o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish.
3. Bayon qilishda o'qituvchining nutqi yagona manba hisoblanadi va u nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.
4. Bayon qilishda o'qituvchi ishlatadigan ta'riflar, qoida va qonunlar kitob matnidan farq qilishi, mazmuniga mos bo'lishi kerak.

Qanday hollarda suhbat usuli qo'llaniladi? Uni qo'llashda qanday qoidalarga amal qilish lozim?

Suhbat usuli - savol-javob usuli deb ham yuritiladi.

O'quvchilar darsga etarli darajada tayyor bo'lsa o'qituvchi rahbarligida muammoli savollarga javoblarni o'zlari axtarib topadigan suhbatlar maqsadga muvofiqdir. Bunday suhbatlar evristik izlanish, axtarib topish harakterida bo'ladi.

O'qitish jarayonida o'rganilayotgan mavzu yuzasidan kmsh, asosiy va yakunlovchi suhbatlar ham qo'llaniladi. Suhbatlar, ayniqsa, o'qitishning tarbiyalovchilik harakterida dunyoqarash, e'tiqodni tarkib toptirishda qo'l keladi. Suhbatlar butun sinf hamda o'quvchilarning ayrim guruhlar bilan ham o'tkaziladi.

Suhbatlar orqali: a) o'quvchilarning o'z hayotlarida uchratgan voqea, hodisalar yuzasidan savollar berish orqali o'quvchilarning mustaqil fikr qilishlarini amalga oshiradigan holatlarga e'tibor qilish; b) o'quvchilarning ilgari o'rgangan tayanch bilimlarini esga tushirishga erishish lozim. Suhbat usuli bilan ish ko'rgandao'qituvchi quyidagilarga amal qilishi lozim:

1. O'qituvchining suhbat uchun tayyorlab kelgan savollari sinf o'quvchilari hammasiga taalluqli bo'lib, so'roq'rtaga tashlanishi kerak.

2. O'quvchilardan bir javob berish uchun chaqiriladi.

3. Sinfning hamma o'quvchilari javob berayotgan o'quvchini qunt bilan tinglashi, uning javobini to'ldirishi, tuzatishi, oydinlash-tirishga yordam berishini ta'minlashi kerak.

4. O'quvchilarning javobi qay darajada to'g'ri-noto'g'ri bo'lishidan qat'i nazar o'qituvchi tomonidan izohlanishi, yakunlanishi va baholanishi zarur.

Ta'lim jarayonida turli ko'rgazmali qurollardan foydalanishga harakat qilamiz. Xo'sh, ushbu o'quv informatsiyasini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodining ahamiyati qanday? Ko'rgazmalilikning qanday turlari mavjud? degan savollarga javob topishga harakat qilaylik. Ko'rgazmali usulning muhimligi o'rganilayotgan narsa va hodisalarni hissiy idrok etishga, ularni kuzatib mushohada qilishga o'quvchini undash, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga ishonch hosil qilishga, nihoyat nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

Ta'limda ko'rgazmalilik usuli namoyish etish, illyustratsiya va ekskursiya tariqasida olibboriladi.

Ta'lim jarayonida namoyish etish usulidan foydalanish asosiy materialning harakteriga - mazmuni, shakli va hajmiga bog'liq. Bu harakter ikki turlidir;

1. Aslida ko'rsatilishi mumkin bo'lgan buyum va narsalar: o'simliklar, ularning tarkibi, hayvonlar, madanlar, kolleksiyalar, asbob va mashinalar, modellar va h.k.

2. Tasviriyl ko'rgazmali materiallar: A) buyum, narsa, hodisa va voqealarning tasvirini ifodalovchi materiallar, rasm, surat, fotosurat, diafilm va h.k. B) buyum, narsa, voqealarning biror shartli belgisi orqali ifodalangan simvolik va sxematik tasviriyl materiallar geografiya va tarix kartalari, chizmalar, jadvallar, diagrammalar va h.k.

Tasviriyl ko'rgazmali materiallar turliligi har xil qo'llashni talab etadi. Masalan:

1. Buyum va narsalarni tabiiy holda ko'rsatishni ikki usulda namoyish etiladi:

a) o'tilayotgan mavzuga oid badiiy ko'rgazma materiallari o'quvchi bayon qilayotgan bir vaqtda (faqat o'qituvchi ko'rsatadi);

b) tabiiy ko'rgazmali materiallarning soni etarli bo'lsa ular har bir o'quvchiga tarqatib beriladi.

2. Tasviriy ko'rgazmali materiallarning har ikkala turini ham ikki xil usulda olib borish mumkin:

a) ko'rgazmali materiallarni o'qituvchi namoyish etadi;

b) ko'rgazmali materiallar o'quvchiga tarqatiladi.

O'qitilayotgan mavzuning harakterini hamma vaqt sinfda ochib bo'lmaydi. Bu holda nima qilish kerak?Ekskursiya metodidan foydalanish mumkin. Mavzuni ekskursiya usuli bilan ham ko'rsatish mumkin. Bu usulda o'rganilayotgan narsa hodisalarni tabiiy sharoitda zavod, fabrika, tabiatda, muzey, ko'rgazmalarda tashkiliy ravishda ko'rsatiladi. Agar ko'rsatilayotgan joyda o'tilayotgan mavzu mazmunini keng ochib berish imkoni bo'lsa, buni o'qituvchi oldindan borib kuzatib keyin o'quvchilarni olib boradi, ekskursiya usulidan foydalanadi, o'quvchilar ekskursiya davomida obyekt ustidan ma'lumotlarni eshitish yoki kuzatish bilan chegaralan-masdan zarur materiallarni yozib oladilar, rasmini chizadilar, o'lchash, hisoblash ishlarini olib boradilar.

O'qituvchi ekskursiya oxirida mulohaza va fikrlarni umumlashtirib, xulosa chiqaradi va mashg'ulotni yakunlaydi.

Dissertant R.Z.Asomova "Kasb tanlash motivasiyasi va uning dinamikasi" nomli ilmiy izlanishida kasb tanlash motivlari mexanizmlari, ularning birlamchi manbalari, harakatlantiruvchi kuchlari, dinamikasi va shaxsning individualligi masalalari atroflicha ochib berilgan. Shuningdek, kasbiy motivlarning mutaxassisni kasbiy tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik, hamda kasbiy va o'quv motivlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik masalalari ham keng doirada tadqiq qilingan. U.S.Jumaeov tomonidan "O'smirlarda kasb tanlashga munosabat tizimi shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" mavzusidagi nomzodlik ishida

kichik, real guruh a'zolari o'smirlarda kasb tanlashga munosabat va uning umumta'lim maktab o'quvchilarida shakllanishi, namoyon bo'lishi va dinamikasi ilk bor tadqiq qilindi.

Shuningdek,
faoliyatlari jarayonida kasb tanlashga munosabat tizimiko'rsatkichlari
(o'rtacha umumiy vaqiyosiy-tipik)
tahlil etildivategishli amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi,
kasb tanlashga munosabat tizimining yosh xususiyatlaritavsiflab berildi.

R.B.Abduraxmonovning "Pedagog va psixologlarda kasbiy yo'nalganlikning kamol topishi" mavzusidagi dissertasion ishida kasbiy pedagogik va psixologik yo'nalganlik komponentlari aniqlangan va oliy o'quv yurtida tayyorgarlik davrida uning shakllanish dinamikasi o'rganilgan. ¹Tadqiqot natijalari oliy o'quv yurtida olingan bilimning talablari, shaxslilik motivlari, ustanovkalari va qadriyatlar tizimiga kirib borishidan yaqqol dalolat beradi. Bolaga kognitiv, emosional va xulq-atvor komponentlarining uyg'unligi tarzida namoyon bo'ladigan ijtimoiy-psixologik ustanovka sifatidagi munosabatni o'rganish psixologiya uchun yangilik hisoblanadi. Bundan tashqari ishda birinchi marotaba faoliyat turining almashinuvida, ya'ni, maktab psixologlarini qayta tayyorlashda kasbiy yo'nalganlikning o'zgarish muammosi tadqiq etilgan. Dissertant N.G'.Muratalievaning "Bo'lg'usi boshlanqich sinf o'qituvchilarning shaxslilik yo'nalishi" mavzusidagi tadqiqot ishida shaxslilik yo'nalishi bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy etilishida muhim omil ekanligi aniqlandi.

Unda o'quv jarayonida shaxslilik yo'nalishining rivojlanish dinamikasi hamda pedagogik ijtimoiy persepsiya xususiyatlari aniqlangan. Shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan yondoshuv nuqtai nazaridan bo'lg'usi boshlanqich sinf o'qituvchilarining oliy o'quv yurtida tayyorgarlik jarayonida kasbiy yetilish sharoitida shaxslilik yo'nalishi tadqiq etilgan.

¹Yo'ldoshev U.A., Po'latova.M. Korayev Z. Amaliy psixologning ish kitobi.Navoiy 2000 yil

I.N.Aslonovtomonidan

“Bojxonatizimifaoliyatisamaradorliginioshirishdakadrlarningshaxsiypsixologikta yorgarligiomillari (muomalajarayonimisolidi)” olibborgantadqiqotishidabojxonaxodimlariningkasbiyfaoliyatdoirasidaularningkasbiy muomalasimohiyativamazmunibelgilabberildi, bojxonaxizmatixodiminingsamaralimuomalasigata’siretuvchipsixologikqiyinchilikl arvato’siqlartahliletildivaulargaaniqliklarkiritildi. Shuningdek, bojxona xodimining kasbiy faoliyati xususiyatlarini inobatga olgan holda ularda samarali professional muomala malakasi va ko’nikmalarini shakllantirish bo’yicha amaliy takliflar hamda tashkiliy-metodik vositalar ishlab chiqiladi. Shunday qilib, yurtimiz psixologlarining kasbiy tiklanishining turli bosqichlarini o’rganishga bag’ishlangan tadqiqotlari tahlilida rivojlanishning shaxsiy omillari, shaxsning kasbiy faoliyati doirasida tiklanishining hal qiluvchi rolga asosiy e’tibor qaratiladi¹.

Anglanilganlik mustaqillikning rivojlanish darajasi, ya’ni, ijtimoiy yetuklikni hisobga olish ko’p jihatdan o’quvchilarda kasbiy tiklanish mexanizmini o’rganish imkonini beradi. Yuqoridagi fikrlardan ko’rinadiki, respublikamiz psixologlari tomonidan kasbga yo’naltirish, kasb tanlash masalalariga doir bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu esa muammoni turli jihatlarini yanada chuqurroq o’rganish imkonini beradi. Shu bilan birga yosh avlodni ongli ravishda to’g’ri kasb tanlashga yo’naltirish, kasb tanlashda uchraydigan xato va kamchiliklarni oldini olish hamda kasbiy o’zlikni shakllantirish doirasida yechimi topilmagan muammolar ham talaygina. Shu bois respublikamiz psixolog olimlari tomonidan bu borada bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

O’qitishning amaliy metodlarini qo’llash o’quvchilarga nimalar beradi?

O’quv informasiyasini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laborotoriya, ishlari, dastur tuzish, pedagogik masalalarni yechish, mehnat harakatlari va boshqalar).

¹Yo’ldoshev U.A., Po’latova.M. Korayev Z. Amaliy psixologning ish kitobi.Navoiy 2000 yil

O'qitishning amaliy usullari doirasi keng. Bu usullarga: yozma mashq, tajriba, laboratoriya harakteridagi mashqlar, mehnat topshiriqlarini bajarish kabilar misol bo'ladi.

Yozma mashqlar jarayonida olingan nazariy bilimlar bevosita amaliyotda qo'llanadi. Mashq qilish davomida ilmiy bilim va ma'lum ish harakat o'zlashtiriladi, takomillashadi, ular aniq o'quv fanining harakteri hisobiga maqsadli, rejali tarzda amalga oshadi. Mashq davomida har bir mashq e'tiborga olinadi. Masalan, ona tilidan grammatik tahlil, matematikadan misol, masala yechish, tabiiy fanlardan ximiyaviy tenglamalar tuzish, ko'effitsiyentlar tanlash, masala yechish, o'simliklarni turlarga ajratish va h.k. Mashq davomida ilgari egallangan bilim, ko'nikma, malakalar, qonunlar faoliyatga tatbiq etiladi.

O'quvchilarning o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalarni mus-tahkamlash ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish asosida olib boriladi:

- mashq uchun berilgan topshiriqning maqsadi o'quvchi-larga aniq tushuntirilgan bo'lishi;
- mashq ustidan sinf o'quvchilar jamoasi va har qaysi o'quvchilarning shaxsiy intilish, qiziqishini hisobga olishi;
- topshiriq butun sinf o'quvchilarining aktiv faoliyatini ta'minlaydigan bo'lishi va mashqni belgilangan vaqt ichida bajarishi talab etiladi.

Mashq qilishda o'quvchilarning yozma, ijodiy mashqlari alohida o'rin egallaydi.

Yozma ijodiy mashqlar ona tili, adabiyot, tarix, geografiya fanlarida ham qo'llaniladi. Ular insho, va'z, referatlar yozish kabilarda o'z aksini topadi.

O'quvchilarning yozma grafik ishlari rasm solish, haritalar chizish, chizma va sxemalar ishlash, jadval, diagramma, grafik, plakat, albom, stendlar ishlash, laboratoriya mashq ishlari, tajribalar o'qitish jarayonida o'quvchilarga atrofni o'rab olgan obyektlarni borliqdagi narsa va hodisalar, ularning shakli, hajmi, tarkibi, tuzilishi, o'zgarish va rivojlanishi qonuniyatlari haqida yangi bilim beradi. Bu usullar o'quvchilar bilan yoppasiga va alohida olib boriladi.

Amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarga umumiy politexnik ta'lim berish va mehnat malakasi bilan qurolantirishda asosiy usul bo'lib xizmat qiladi. O'qitishning reproduktiv metodini qachon qo'llash mumkin? Bu usullar o'quvchilarning yangi tushuncha, hodisa va qonunlarni bilishdagi ijodiy faolliklari darajasini baholash asosida qismlarga ajratiladi. Reproaktiv usullar o'quvchilarning o'quv materiallarini mustahkamroq eslab qolishlarini ta'minlash, bilishgadoir aoliyatni bevosita boshqarish, kamchiliklarni tez aniqlash uchun amaliy ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish maqsadida qo'llaniladi.

Reproaktiv usullar - o'quv materialining mazmuni, asosan, axborot harakterida bo'lsa, amaliy harakatlarning usullarini ta'riflash, o'quvchilarning bilimlarini mustaqil qidirib o'la bilishlari uchun juda yangi hisoblansa, vaziyatlarni hal qilish uchun tayyor bilimlar yo'q bo'lsa, samarali qo'llanadi.

Bu usulda tafakkur qilish katta samara beradi. Reproaktiv usulda o'quvchilar ilgari yoki yaqinda egallagan bilimlarini qo'llaydi.

Muammoli ta'lim nima? Qanday qilib muammoli vaziyat yaratish mumkin?

Muammoli deyilganda o'quv materialini o'quvchilar ongida ilmiy izlanishga o'xshash bilish vazifalari va muammolari paydo bo'ladigan qilib o'rganish tushuniladi.

O'quvchilarning fikriash faoliyatida mantiqiy to'g'ri, ilmiy xulosalarni izlash va o'zlashtirishga rag'batlantiradigan muammoli vaziyatlar vujudga keladi.

Har qanday ta'limga o'quvchi uchun muammolidir. O'quvchi ongida muammoli vaziyatni vujudga keltirish, o'quvchining faol fikriash faoliyati o'quv materialini puxta o'zlashtirib olishlari haqida sharq pedagoglari qimmatli fikrlar aytib o'tganlar.

Mutafakkir Abu Rayhon Beruniy (937-1048) didaktik qarashlarida o'quvchilarni o'qitish hamda tarbiyalash jarayonida, birinchidan, turli mavzularda mulohazalar yuritishni, o'quvchining zerikmasligini, zo'riqmasligini ta'kidlagan¹.

Muammoli vaziyatda:

¹Tolipov U.K., M.Barakayev, Sh.S Sharipov. Kasbiy-pedagogika-T.:2001 yil.

- o'quvchi uchun bilish qiyinchiligiga ega, ya'ni o'rganilayotgan muammo ustida fikr yuritish;

- o'quvchilarda bilishga qiziqish uyg'otish;

- tahlil jarayonida o'quvchilarning avvalgi tajribasi va bilimiga suyanish.

Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatni vujudga keltirish, un-dan foydalanish usullarini yaratish, ta'lim tizimining har bir bosqichida o'rganiladigan fanlarga xosdir.

Muammoli vaziyat fanning mazmuni o'ziga xos harakter xususiyatlari, uni o'rganish usullarini hisobga olgan holda yaratiladi. Ta'lim jarayonida o'qitishning induktiv va deduktiv usullariga ehtiyoj sezilmoqda. Qanday holda induktiv va deduktiv usullar qo'llaniladi? Ayniqsa, deduktiv o'qitishga talab va e'tibor kuchaydi. Bu usulda tafakkur qilish katta samara beradi. Induktiv yoki deduktiv usullarni qo'llash o'rganilayotgan mavzu mazmunini ochishning ma'lum mantig'ini- xususiyydan umumiyga yoki umumiydan xususiyyga o'tishni tanlashni anglatadi.

Induktiv usullar texnik qurilmalarni o'rganishda va amaliy topshiriqlarni bajarishda keng qo'llaniladi.

Deduktiv usul o'quv materialini tezroq o'tishga yordam beradi, tafakkurni birmuncha faol rivojlantiradi.

Nazariy materialni o'rganishda anchagina umumiy holatlardan ayrim oqibatlarni aniqlashni talab qiluvchi masalalarni echishda deduktiv usulni qo'llash, ayniqsa, foydalidir.

Ta'limda rag'batlantirish va tanbeh berishning qanday turlaridan foydalaniladi?

1. Ta'limga qiziqishni rag'batlantirish metodi.

2. Ta'limga burch va mas'uliyatni rag'batlantirish metodi.

O'quv faoliyatini rag'batlantirish deb kishining aktiv faoliyatiga bo'lgan tashqi mayiiga aytiladi. Shu sababli, rag'batlantirish o'qituvchi faoliyatining omili hisoblanadi.

Rag'batlantirish kishining ichki mayiiga ta'sir qilganda real maqsad sari undaydigan kuchga aylanadi. O'qishga qiziqishni rag'batlantirish turlaridan biri- o'qishda ma'lum qiyinchilik sezayotgan o'quvchilarga muvaffaqiyatli sharoit yaratishdir.

Rag'batlantirish va tanbeh berish usullari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Rag'batlantirish: baho bilan, imo-ishora bilan, mukofot bilan amalga oshadi.

O'qishga doir tanbehlar dars paytida, og'zaki tanbeh berish, bahosini pasaytirib qo'yish, ish daftariga yozish, xatolarni ko'rsatish kabi usullar bilan amalga oshadi. Maktabda o'quvchiga tan jazosi berish, o'zlashtirmagani uchun haqorat qilish, shaxsiga tegish, yomon iboralar bilan so'kish aslo mumkin emas.

Ta'limda nazorat vao'z-o'zini nazorat qilish metodlarining zarurati nimada va uning qanday turlari bor?

1. Og'zaki nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish.
2. Yozma nazorat vao'z-o'zini nazorat qilish.
3. Laboratoriya - amaliy nazorat vao'z-o'zini nazorat.
4. Test nazorati.

O'qitish tizimida nazoratning zarurligi shundan iboratki, butun o'quv yurtlari tizimiga samarali ishlayotganligi haqida axborot olishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj hisobga olinadi. Nazorat maktabdagi o'qitish jarayoniga xos bo'lgan: ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantirishdek asosiy vazifalarni bajaradi. Nazoratni quyidagi turlarga bo'lish mumkin: 1. Og'zaki nazorat -yakka va guruhiy so'rash yo'li bilan amalga oshiriladi. Alohida so'rashda o'qituvchi ma'lum vaqt davrida o'quvchilar tushuncha, qonun nazariya holda dalillarni qay darajada egallaganliklarini aniqlaydi. O'quvchilar bilimi ona tili, matematika, fizika, kimyo fanlarida yozma tarzda ham baholanadi. 2. Yozma ishlar turli davomiylikka ega. Ayrim vaqtda qisqa, ayrimda esa to'la dars davomida yozma ishlar o'tkaziladi. Yozma nazoratda baholar obyektiv bo'lishi va o'quvchilarning tipik xatolari aniqlanib, kelgusida ularning bartaraf etilishi belgilab olinadi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish-

o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini muhimelementidir. Nazorat kelgusidagi ishlarga reja tuzish nimalarga e‘tibor berish kerakligini aniqlab beradi.

Ta'lim maqsadini muvafTaqqiyatli amalga oshirish yo‘lida ta'lim vositalaridan foydalaniladi.Kompyuter, Multimedia, kodaskop, filmoskop, logorifm lineykasi, sirkul, apparat turlari - bular jumlasiga kiradi.Ta'lim metodlarini to‘g‘ri tanlash va ulardan o‘rinli foyda-lanish - ta'lim samarasini ta'minlashga yordam beradi. Ta'lim metodi mavzuning maqsadiga qarab tanlanadi.

1.2. Zamonaviy ta'lim-tarbiyaning tashkiliy shakllari

Kasblar psixologiyasining mustaqil fan sifatida shakllanishini 3-bosqichini ajratish mumkin.

1. XIX-asrning oxirida mehnatni ilmiy tashkillashtirishning psixologik masalalarini hal qiladigan psixotexnika yo‘nalishini paydo bo‘lishi, shuningdek, psixotexnika taraqqiyotining asosiy masalalari bu mehnat sharoitlari va shu usullarini rasionalizasiya qilish, avariya va shikastlanishni kamaytirish, ishlab chiqarish ta’limining shakllanishi masalalariga e‘tiborning kuchayishdir.

2. XX-asr boshlarida mustaqil ilmiy soha mehnat psixologiyasining rivojlanishi va bu boradagi kasbiy tadqiqot masalalari, inson psixologiyasining mehnatda namoyon bo‘lishi va shakllanishi shuningdek, kasbiy tanlov, kasbiy maslahat va mehnat ekspertizasi masalalariga doir bilimlarni yuzaga kelishi.

3. XX-asrning 70-yillarida inson va kasb hamkorligi muammolarining hal qiluvchi mehnat psixologiyasi va industrial psixologiyadagi vazifalarning paydo bo‘lishi, mehnat psixologiyasining bu sohasi profpsixologiya yoki kasblar psixologiyasi deb nomlana boshladi. Kasb psixologiyasi doirasida kasbiy maslahat, kasb tanlash, va kasbshunoslik bo‘yicha tadqiqotlar birlashtirilgan. Mustaqil ilmiy fan sifatida kasb psixologiyasi yuzaga keldi va bu AQSHlik olimlar J. Krites va D. Super ishlarida ko‘zga tashlangan.Ammo chet el tajribasi asosida to‘plangan

ma'lumotlardan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish imkoniyati bo'lmaydi. O'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va ijtimoiy madaniy an'analar yurtimizda o'zimizga, millatimizga xos milliy kasb psixologiyasining rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Kasb psixologiyasiga taxminan XX-asrdan boshlab asos solinib kelingan. Bunga ko'proq insonlarni o'z qobiliyatlari, ehtiyojlari, hohish, istaklari, imkoniyatlari, individual xususiyatlari va hokazolarni hisobga olmagan tarzda kasblar olami haqidagi bilimlarga ega bo'lmaganliklari natijasida qaysidir ma'noda ongsiz ravishda kasb tanlashlariga sabab bo'lgan. Biroq keyinchalik rus psixologi E. A. Klimov o'z tadqiqot ishlarida aynan shu masalaga, ya'ni "kasb tanlash", "kasbga yo'naltirish" kabi masalalarga e'tiborini qaratib, bu borada tadqiqot ishini olib borgan. Xususan, misol sifatida Differensial diagnostik so'rovnomasi (DDS) metodikasini ishlab chiqqan. YE.A.Klimovdan tashqari ham ko'p chet el olimlari bu masala bo'yicha ish olib borganlar. Asta-sekin jamiyatda kasb tanlashga nisbatan ongli yondoshishlar kuzatila boshlandi. Ya'ni ularning barchasi kasb psixologiyasining shakllanishiga olib keladi. Kasb psixologiyasining ajralib chiqishi hozirgi kunda shaxsning kasbiy mehnatga o'rganib ketishi emas, balki alohida kasbiy bilim, ko'nikma va malaka hamda umuman kasblar olamiga kirib borishiga asoslanadi. Tadqiqot muammosining asoslari shaxsning kasbiy xulq-atvorini, shuningdek, kasbiy tayyorgarlikni boshlanqich rivojlanishidan toki kasbiy hayotni tark etgunga qadar bo'lgan jarayonlarni ochib bergan. Kasb psixologiyasi masalalarini o'rganishga G.V.Kudryavsev, Ye.A.Klimov, B.F.Lomov, K.K.Platonov, K.M.Gurevich va boshqalar o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Kasbiy shakllanish muammosi XX-asr boshlarida dolzarb masalalardan hisoblanib, lekin bu vaqtgacha kasbning erkin tanlovi bo'lmagan¹. Insonlarning kasbiy hayotidagi o'zgarishlar shuningdek, jamiyatning patriarxal tuzumi, chegaralangan sanoat inqilobi va mehnat bozori, yangi kasblarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ko'pchilik odamlarni topish va ishga kasbiy tayyorlash muammosiga duch kelishdi. O'zgargan tarixiy vaziyat kasblar dunyosini keskin o'zgarishiga olib keldi. Yangi ish qurollari va vositalarini yaratish, ko'p yillar davomida mehnat

¹ Ishlab chiqish asoslari. Kasb tanlash kurs metodikasi.- "O'qituvchi" 1989 yil.58-b.

vazifalarini sifatli va mahsuldor bajara oladigan yuqori malakali ishchilarga nisbatan ehtiyojni kuchaytiradi. Mehnatni tashkillashtirishda F.Teylor tomonidan ishlab chiqilgan tizimi keng tarqaldi. Mehnat jarayonidan tashqari bu tizimda ishchining kasbiy layoqatiga katta e'tibor berilgan

Kasbiy o'zlikni anglash va kasbiy layoqat masalalarini yechimini topilishi-psixologiyaning yangi sohasi psixotexnikaning rivojlanishiga olib keldi. 1920-yillarda esa mehnat jarayoni, inson va texnikaning rivojlanishiga turtki bo'ldi. Bu jarayonda insonning psixika va ishlab chiqarish texnologiyasiga moslashuvi jarayoniga katta e'tibor berilgan. Ishlab chiqarishni tashkil qilishda demokratik tamoyillarning o'rnatilishi shaxsning faoliyatida mehnatning ahamiyati to'g'risidagi insonparvarlik nazariyalar rivojlangan mamlakatlarda XX-asrning 70-yillarida paydo bo'ldi va shaxsning kasbiy jihatlari to'g'risidagi konsepsiyani boshqacha anglashlariga olib keldi. Shaxs va kasb hamkorligi kasbiy shakllanishning o'zagi deb hisoblana boshlandi. Kasb egallash va ayniqsa kasbiy faoliyatni bajarish jarayonida ishchi shaxsida va faoliyat tuzilmasida o'zgarishlar bo'lib o'tadi, ya'ni shaxs o'z kasbni ustasi bo'lib kasbning mazmuni va xususiyatini o'zgartiradi².

Ta'lim muassasalari oldida turgan vazifalarning ijobiy hal etilishi mashg'ulot (ta'lim jarayoni) mazmuni, ta'lim shakli, metodlari hamda vositalarining samaradorligiga bog'liq bo'ladi. Ta'lim shakli, metodlari va vositalari talabalarni (o'quvchilarni) ma'naviy jihatdan tarbiyalash, ularda chuqur bilim va dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim shakli o'qituvchi va o'quvchining belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq ma'lum rejimda tashkil etiladigan faoliyatlarining tashqi ifodasidir.

Qadim zamonlardan oq jamiyatning yetuk kishilari o'qitish ishini tashkil qilishning ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlarigajavob beradigan shakllarini topishga uringanlar.Hozirgi vaqtda Respublika ta'lim muassasalarida o'qitishning quyidagi shakllaridan foydalanilmoqda.

²O'sha kitob.74-b

An'anaviy ta'lim shakllari (sinf dars tizimi):

- a) yangi bilimlarni bayon qilish darsi;
- b) o'qitilgan materiallarni mustahkamlash darsi;
- v) bilim, qonun va malakalarni tekshirish darsi;
- g) kirish va takroriy umumlashtiruvchi darslar;
- d) aralash dars.

Yakka tartibdagi ta'lim shakli:

- a) repetitorlik ta'limi.

Noan'anaviy ta'lim shakllari:

- a) ma'ruza;
- b) fakultativ;
- v) seminar;
- g) laboratoriya mashg'ulotlari;
- d) ekskursiya;
- ye) bahs-munozara;
- j) davra stoli;
- z) viktorina;
- i) matbuot konferensiyasi va boshqalar¹.

Shuni ta'kidlash lozimki, iqtisodchi-o'qituvchi kadrlar tayyorlashda Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetida ham yuqoridagi ta'lim shakllaridan keng foydalanilmoqda.

Shu bilan birga kadrlar tayyorlashda ta'lim berishda o'qitish usullari ham asosiy o'rinni egallaydi. Usul aynan nimagadir yo'l, degan ma'noni anglatadi, ya'ni maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Usullar har qanday axborotni maqsadni) uzatish va qabul qilish tarziga qarab quyidagi turlarga ajratiladi:

- a) og'zaki usul;
- b) ko'rgazmali usul;
- v) amaliy usul.

¹Sh. Umarov. «Uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi». -T., 2005. (B.M.I.)

Ta'lim jarayonida talabalarni o'zlashtirish, fikrlash jarayonini tashkil etish bo'yicha esa quyidagi usullarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- a) o'qitishning ma'ruza (suhbat) usuli;
- b) o'qitishning amaliy ishlar usuli;
- v) laboratoriya ishlar usuli;
- g) mustaqil ishlar usuli;
- d) reproduktiv-evristik usul;
- ye) ilmiy-tadqiqot usuli;
- j) o'qitishning muammoli-izlanish usuli;
- z) o'qitishning induktiv va deduktiv usuli.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunida «Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi» - deyilgan. Shu bilan birga oliy ta'lim talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga ham o'rgatadi. Agar o'rta maktabning asosiy vazifasi o'quvchilarga bilim, malaka va iqtidor, shu bilan birga kasbga yo'naltirish bilan shug'ullansa, oliy maktab ilmiy bilim, ilmiy malaka, iqtidor beradi talabalarga mutaxassis shaxsini tarbiyalaydi. Shu bilan birga ma'lum fan bo'yicha ilmiy-tadqiqotchini ham tarbiyalaydi. Shu o'rinda I.Karimov «Fanga iste'dodli yoshlarni kirib kelishini ta'minlash uchun kompleks tadbirlar turkumini amalga oshirish zarur. Bu o'rinda oliy maktabning, hatto umumiy ta'lim maktablarining faoliyatlarini tubdan qayta qurish kerak» - deydi¹.

Shu nuqtai nazardan oliy maktablarda bilimlarni hozirgi zamon darajasida berib borish alohida ahamiyatga ega. Hozirda oliy ta'lim ikki bosqichdagi iborat, ya'ni bakalavriat va magistratura. Mana shu bosqichlarni amalga oshirishda, aniqrog'i, oliy ma'lumotli yetuk mutaxassis tayyorlashda iqtisodiy bilimlarni berishning tashkiliy shakllari qo'llaniladi.

Ma'ruza - bilim berishning shunday shakli, unda pedagog (o'qituvchi) tomonidan o'rganilayotgan bilimlar, malakalar, ko'nikmalar talabalarga yoppasiga bayon etiladi. Ma'ruzalar bayon etilish joyiga qarab har xil bo'lishi mumkin, ya'ni tegishli fanlarga oid (iqtisod, marketing, menejment, tadbirkorlik, huquq, iqtisodiy

¹Sh. Umarov. «Uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi». -T.:, 2005. (B.M.I.)

informatika va hokazo), ijtimoiy harakterga ega ma'ruzalar, texnika-texnologiyalarga oid ma'ruzalar, ilmiy pedagogik markazlar, badiiy ijodiyotga oid ma'ruzalar (adabiyot, san'at), diniy dunyoviy ma'ruzalar va boshqalar. Biz uchun hozirda iqtisodiyot fanlariga oid ma'ruzalar harakterlidir.

Ma'ruza bayon etilishi jarayonida unga quyidagi talablar quyiladi:

- 1) Berilayotgan materiallar ilmiy harakterga ega bo'lishligi.
- 2) Ma'ruza sistemali (tizimli) bo'lishligi.
- 3) Materiallar, ma'lumotlar talabalar kuchiga mos va xos bo'lishligi.
- 4) Ma'ruza siyosiy jihatdan talabga javob berishligi.
- 5) Ma'ruzada nazariy masalalar amaliyot bilan bevosita bog'langan bo'lishligi.
- 6) Ma'ruza mavzuga oid Respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy voqea, hodisalarning eng so'nggi statistik ma'lumotlari bilan boyitilgan bo'lishligi lozim.

Ma'ruza - o'quv jarayonining ilg'or usullaridan biri bo'lib, dastlab u o'rta asrlarda biron bir kitobni o'qish yoki uni izohlash yo'li bilan namoyon bo'lgan. Jamiyat rivojlanishi mobaynida og'zaki tushuntirishning bu usuli XVIII asrda lotin tilida amalga oshirilgan. XVIII asro'rtalariga kelib ma'ruzalar rus tilida o'qiy boshlandi. Uni ilg'or namoyondalaridan biri M.V.Lomonosovdir.

Ma'ruzada odatda ko'proq bayon qilish yetakchi rol o'ynaydi. Talabalar darsda passiv rol o'ynashadi. Seminar darsida esa talabalar aktiv rol o'ynashadi. Darsda turli uslublarni qo'llab, ularni faolligini ta'minlash imkoniyati keng. Ma'ruza darsi asosan monolog tarzida bayon qilinsa, seminar darsi turli tuman dialog asosida olib boriladi. Odatda seminar darsida talabalarning bilimi, o'z ustida ishlash darajasi aniqlanadi va nazorat qilinadi.

Seminar (lot.seminarium- manba, ko'chma ma'noda -maktab) - o'quv amaliy mashg'ulot shakllaridan biri. Asosan oliy ukuv yurtlarida ilmiy to'garak anjumanlarida qo'llaniladi.

Ta'limning seminar shakli qadimgi Yunon va Rim maktablarida paydo bo'lgan. Keyinchalik harbiy Yevropa universitetlarida rivojlantirilgan. Bu univesitetlarda asosan seminar talabaning adabiyotlar, manba ustida ishlash

vazifasini o'tagan. XX asr boshlaridan seminar darslari talabalarning umumiy ilmiy dunyo qarashini kengaytirishda, ularni muayyan fan tarixidagi muhim muammo va tadqiqotlar bilan tanishtirishda katta rol o'ynay boshlagan.

Seminarning asosan uch turi bor.

O'rganilayotgan fan yoki kursni chuqur o'rganishga yordam beradigan darslari.

Ayrim muammo, asosiy yoki muhim mavzuni o'rganish uchun o'tkaziladigan seminarlar.

Tadqiqot harakteridagi seminarlar.

O'quv jarayonini tashkil etishda seminar darslari alohida o'rin tutadi. Seminar talabalarning bilimlarini mustahkamlashni ta'minlovchi, ijodiy qobiliyatini namoyon qiluvchi o'quv jarayoni shaklidir.

Seminar mashg'ulotlarinig maqsadi talabalarning chuqur bilim olishini ta'minlash, olgan bilimni real hayetda qayta qo'llashdir.

Buning uchun talaba olgan axborotlarini tahlil qilish, ilmiy tadqiqot o'tkazish, taqqoslash xulosa chikarishni bilishi kerak. Bunday mahoratga ega bo'lishga ko'p jihatdan seminar darsi yordam beradi.

Seminar darsining oldiga qo'yilgan bosh maqsadni amalga oshirish uchun darsni olidiga kuyilgan qator vazifalarni amalga oshirish kerak. Bu vazifalar seminar darslari bajaradigan funksiyalarda o'z ifodasini topadi.

Seminar darsi kator funksiyalarni bajaradi;

1. Talabalarga proffesional ta'lim berish va tarbiyalash;

Mustaqil ishlash malakasini o'stirish;

Talabalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish;

Nutq, so'zlash, ilmiy munozaralar olib borishga o'rgatish;

Mustaqil fikr yuritish va fikrini o'rtoklashishga o'rgatish;

O'rtoklari fikrini tanqidiy nuqtai nazardan baholashga o'rgatish;

Seminar darsini o'tkazishda qo'llaniladigan uslublar turli tuman bo'lib, u yoki bu uslubni tanlash, avvalo o'rganilayotgan fanninng xususiyatiga, ikkinchidan,

o'tilayotgan mavzuga, uchinchidan, seminar darsida qo'yilgan maqsadga, nihoyat, to'rtinchidan, tanlangan uslubni qo'llash imkoniyatiga bog'liq¹.

Ayni paytda iqtisodiy ta'lim jarayonida nisbatan keng qo'llaniladigan uslublardan ekspres-savol-javob, savollar tizimiga asoslangan muhokama, masala, mashq, test va ularning natijasini muhokama qilish va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Seminar mavzusi ma'ruza mavzusi bilan bir xil bo'lishi shart emas. Ayrim paytlarda mavzudagi ayrim savollarni ma'ruzada ko'rilsa, ayrimlarini seminarda muhokama qilish mumkin. Hozirgi paytda shunday tajriba amal qiladiki, ma'ruzada ko'rilgan mavzu albatta seminarda ham muhokama qilinadi. Lekin ma'lum sharoitda seminar darsi va uning mavzusiga boshqacha yondashish mumkin. Aytaylik, mustaqil o'rganish uchun turli adabiyotlar, boshqa axborot manbalari mavjud bo'lsa, seminarda mustaqil o'rganilgan mavzusi muhokama qilish mumkin. Ayniqsa mavzuni o'rganish uchun vaqt yetishmagan paytda bunday usul qo'l keladi.

Seminar darsini muvaffaqiyatli o'tkazish uchun eng avvalo asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni sinchkovlik bilan o'rganib chiqish zarur. Adabiyotlarni o'rganish dars jarayonida talabalarning diqqatini qaratish lozim bo'lgan masalalarni alohida ajratish, mavzuni qaysi usul asosida o'rganishni rejalashtirish va darsga tayyorlanish imkonini beradi. Ayniqsa, auditoriyada jonlanish, muhokama qilish munozaraga sabab bo'ladigan savollar qo'yilganda yuz beradi. Natijada mavzuni chuqurroq o'rganishga yordam beradi. Shuning uchun ham bunday savollarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Mavzuning mazmunini o'zlashtirishni chuqurlashtirishning eng oddiy yo'li bu savollarni murakkablashtirish hamda alohida savollardan savollar tizimiga o'tish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Bu esa qo'yilgan savollarga javob berish, muammoni, savolni muhokama qilish jarayonida vujudga kelgan muammoli vaziyatni o'rganib, uni yechish imkonini beradi. Masalan, iqtisodiyot nazariyasining bosh masalasi nima? degan savol qo'yilgan. Bu yerda talaba iqtisodiyot nazariyasi fanining bosh muammosi-

¹Ochilov Z. Sinf dan tashqari tarbiyaviy ishlarda kasbga yo'llashning shakllantirish. –T.: “O'qituvchi” 2002y

resurslarning cheklanganligi sharoitida cheksiz ehtiyojni qondirish muammosi-deb javob berishi mumkin. Ana shu savolni boshqacha savollar tizimi asosida qo'yish mumkinki, natijada talabalar qo'yilgan masalani chuqurroq tushunishiga yordam beradi.

Mavzuni o'rganishni chuqurlashtirishga savol shaklini o'zgartirib, uni murakkablashtirish orqali erishish mumkin. Aytaylik, yuqorida berilgan savolni boshqacharoq qilib, iqtisodiyotning bosh muammosi nima va uni nimaga bosh muammo deb qarash kerak?- deb o'zgartirish mumkin.

Talabalarni mavzuni u yoki bu katigoriyani qay darajada tushunganlarini sinash uchun ularga ushbu mavzu bo'yicha berilgan savollarga olingan javoblari asosida muhokama qilish usulini qo'llash mumkin yoki mavzu bo'yicha testlardan foydalanish mumkin bo'ladi.

Seminar darsining talabalar tomonidan bilim, iqtidor, nutq, boshqalar fikriga tanqidiy qarashni talab etadigan uslublaridan munozara bo'lib, u murakkabdir. Bunday usul bilan dars o'tish o'qituvchidan katta tayyorgarlik ko'rish, mahoratni talab etadi. Umuman olganda seminar darsi turli uslublar asosida olib borilar ekan, u qiziqarli, barcha talabalarni faol qatnashishga va ohir oqibat qunt bilan tayyorlanib kelishga undaydi.

Oliy o'quv yurtlarida talabalar ma'ruza darslarida olgan bilimlarini chuqurlashtirishi, ularni kengaytirishi maqsadida o'quv yurtining o'quv rejasida har bir fan (kurs)lar uchun seminar mashg'ulotini talabalar uchun mustaqil ish sifatida qarash mumkin. Chunki talaba ma'ruzada olgan bilimni o'zlashtirgani holda, seminar mashg'ulotiga boshqa adabiyotlar, kerakli manbaalardan, darsliklardan foydalanib ma'lumotlar axtaradi va ularni bo'lg'usi seminar mashg'ulotiga o'zlashtirib boradi. Seminar mashg'ulotiga tayyorgarlik talabalarga izlanishga, fikrlashga, kelajakka tayyorlashda muhim vosita hisoblanadi.

Seminar mashg'uloti darslarida ham talabalar tomonidan mashg'ulotga tayyorlanish davomida I.Karimov asarlaridan foydalanish nazarda tutiladi. Yuqorida qisman aytib o'tilganidek seminar mashg'ulotiga tayyorgarlik ham mustaqil ishlar tarkibiga kiradi. Shu bilan birga mustaqil ishlarga, referat

yozish, kurs ishini tayyorlash, ilmiy anjumanlarda ishtirok etish, diplom ishini tayyorlashlar ham shular jumlasidan. Bularga tayyorlanishda I. Karimov asarlaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, asarlar iqtisodiy mavqega ega ekanligi bilan ilmiy ishlarni erkin bayon etishida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi¹.

Biz yuqorida ma'ruza va seminar mashg'ulotlari haqidagi nazariy fikrlarimizni bayon etdik. Shu ma'noda savol tug'iladi. Xo'sh, iqtisodchi-pedagog kadrlarni tayyorlashda ma'ruza va seminar mashg'ulotlari qanday ahamiyat kasb etadi? Mashg'ulotlarni tashkil etishda asosan nimalarga e'tibor qaratish lozim?

Ma'lumki, iqtisodchi-pedagog kadrlar tayyorlashda ma'ruza va seminar darslari alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'ruzada olingan nazariy bilimlar bevosita seminar darslarida amaliy nuqtai nazardan tegishli savollar asosida tahlil etiladi. Bu esa iqtisodchi-o'qituvchi kadrlar uchun amaliy tajriba vazifasini o'taydi. Ular bir vaqtning o'zida bilim olayotgan bo'lsalar, bir vaqtning o'zida olingan bilimlarini amaliyotga joriy etishni o'rganadilar. Shu bilan birga ma'ruza va seminar darslarini tashkil etayotgan o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini doimiy kuzatib boradilar. Ulardan o'zlariga kerakli xulosalar chiqaradilar.

Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida pedagogika fani oldida turgan asosiy vazifalardan biri shuki, ta'lim jarayonida talaba ob'yektdan sub'yektga aylanishi lozim va unga erishishda albatta fan o'qituvchilarining roli katta. Shu ma'noda, ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini tashkil etishda asosiy e'tibor an'anaviy dars o'tishga emas, balki noan'anaviy darslarga qaratilishi lozim. Bunga erishish uchun esa o'qituvchi dars o'tish uslubiyotini to'g'ri tanlay olishi lozim. Bas, shunday ekan iqtisodchi-o'qituvchi kadrlar tayyorlash mobaynida quyidagi no'an'anaviy usul va uslublardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Har qanday mavzuni o'ganishda turli uslublar qo'llaniladi. Buning sababi, birinchidan, dars o'tishda turli uslublarni qo'llash uni qiziqarli bo'lishiga, talabalarni diqqatini o'tilayotgan darsni o'zlashtirishga qaratiladi.

¹Q. Shamsiyev. «Darslarni zamonaviy tashkil etishning shakl va uslublari».-T., 2005.

Bir xil uslubda dars o'tilishi talabalarni zeriktiradi hamda dars paytida diqqati boshqa narsalarga qaratiladi.

Psixologlarning tadqiqotlariga ko'ra har qanday mohir o'qituvchi ham bir xil uslubda dars berar ekan, aytaylik, ma'ruza o'qir ekan, talabalar dastlab 20 minut, so'ngra darsni tugashidan oldin 20 minut ma'ruzani diqqat bilan eshitar, qolgan paytda hayoli qochar ekan.

Ikkinchidan, talabalarining darsni o'zlashtirish, eshitganlari, yangi bilimni qabul qilish qobiliyatlari har xil talabalar tomonidan nisbatan to'liq o'zlashtirishga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, olgan bilimni o'zlashtirish jarayonida bir xil talabalarga bir uslub mavzuning mazmunini tezrok anglashga yordam bersa, ikkinchilariga boshqa uslub yordam beradi.

Shuning uchun ham barcha pedagoglar talabalarga bilim berishning eng samarali yo'li, dars o'tishni turli uslublarini qo'llash degan fikr tarafdori bo'lib, aynan qaysi uslub qaysi toifadagi talabalar uchun qo'llanilishi ma'qulligi bo'yicha yagona fikr yo'q.

Jahon pedagogikasi tajribasi shuni ko'rsatadiki, tahlil fikr yuritadigan talabalardan muvaffaqiyat bilan ishlovchi biznesmenlar, siyosiy liderlar (sardorlar), fan arboblari yetishib chiqadi. Pedagoglarning muhim vazifasi, maqsadi aynan turli uslublar orqali talabalarni bilim, axborot olishni turli shakllariga tezda moslashishga, o'z dunyoqarashini kengaytirish uchun harakat qilishga talabalarni qiziqtirish va uni amalga oshirishdir.

Agar o'qituvchi talaba yoqtirmaydigan uslubda dars olib borsa uning borgan sari o'qishdan ko'ngli sovib, shu darajaga yetishi mumkinki, fanni umuman o'qigisi kelmay qolishi mumkin. Aksincha, butkul biron talaba yoktiradigan usul bilan dars berilsa, unda fikrlashning qzgaruvchanligi yo'qoladi. O'z imkoniyatini to'la ishga sola olmaydi. Bu degani kelgusida o'z faoliyatida muvaffaqiyatga erishish imkoniyati cheklanadi. Ba'zi talabalar aniq faktlar, ma'lumotlarni tezroq qabul qiladi. Boshqalari nazariy matematik modellarni yoqtiradi. Ba'zi talabalar ko'rgazmali rasmlar, diagrammalar orqali, boshqalari munozara qilganda, uchinchilari o'zi bajarishda qatnashsa yaxshiroq, puxtarok o'rganadi.

Olimlarning hisob-kitobiga ko'ra aholining 40% i ko'rish orqali tezrok o'rgansa, 30%i esa eshitishni ustun qo'yadigan bo'lib, birovdan eshitganlari orqali tezroq o'rganar ekan, qolgan 30%i aralash, o'zi qatnashsa tezroq o'zlashtirar ekan.

Umuman olganda, ta'lim-tarbiya berishning uslublari qotib qolgan emas. Vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Talabalarni bilim olishi va olgan axborotini qayta ishlashi uchun turli tuman uslublarni o'ylab topib qo'llash mumkin. Ayniqsa Hozirgi paytda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun juda ko'p sohalarga bilishning turli usullarini qo'llash va bilim berishda moslashuvchanlik, rang-barang pedagogik uslublar qo'llash talab etiladi.

O'qituvchilarni dars jarayonida turli uslublarni, o'quv topshiriqlarini qo'llab, o'z talabalarida bilim olishga ishtiyoq uygotishlari nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Ko'pchilik pedagoglarning ishonchi komilki, talabalarning qobiliyatini, ularni individualligini hisobga olgan holda turli uslublarni qo'llash, albatta o'zlashtirish natijasini ko'taradi.

Dars o'tishda qo'llaniladigan uslublarni shartli ravishda an'anaviy dars o'tish uslublari hamda talabalar faolligini oshiruvchi interaktiv uslublarga ajratish mumkin.

An'anaviy dars o'tishda darsning asosiy maqsadi ko'proq tushuntirishga qaratilgan. Talabalarni o'rganilayotgan mavzuni qay darajada o'zlashtirganlarini nazorat qilish jarayonida bildirgan fikrlariga qarab amalga oshiriladi¹.

Dars o'tishning talabalar faolligini oshiruvchi interaktiv usullari ayrim adabiyotlarda noan'anaviy dars o'tish usullari deb ham ta'riflanadi. Bu usullardan avvallari ham foydalanilgan, lekin kamroq e'tibor berilgan. Hozirgi paytda butun dunyoda faol interaktiv uslublarni qo'llash dars o'tishni samarali usuli sifatida tan olinib, keng qo'llanilmokda.

Dars o'tish uslublari turlicha bo'lib, ulardan eng ko'p qo'llaniladigan asosiy metodlar quyidagilar:

¹Andrianov.P.N. Maktab o'quvchilari texnik ijodkorligini rivojlantirish. -T.: O'qituvchi" 1989 yil.

Amerika munozara (debatlar). Bunday tarzda dars o'tishda ikki talaba belgilangan qat'iy tartib bo'yicha, munozaraga raislik qiluvchining rahbarligi ostida berilgan savol yoki muammo bo'yicha munozara olib boradilar. Ularning bildirgan fikrlarini arbitrlar kollegiyasi baholaydi. Arbitrlar talabalardan belgilanadi.

Inglizcha munozara (debatlar). Munozaraning bu shaklida muhokama qilinayotgan muammo yechimiga yetkaziladi.

Ochiq munozara. Qo'yilgan muammoni belgilangan qoida bo'yicha muhokama qilib, yechimini qabul qilish yoki qilmaslikni plenumga topshirish bilan yakunlanadi.

Sirtki uslub (masofadan o'kitish). O'quv materialini xatlar, topshiriqlar yoki audiovizual vositalar orqali mustaqil o'rganish. Internetni hayotga kirib kelish va borgan sari keng qo'llanilishi bilan bu uslub asosida dars berish ham rivojlanib, keng yoyilmokda.

To'g'ridan-to'g'ri bayon qilish uslubi. Bu model (uslub) yangi tushunchalar, navbatma navbat, astalik bilan mantiqiy izchillikda berib boriladi. Bu uslub ko'proq ma'ruza uqiganda qo'llaniladi.

Guruhlarda juftlik yoki kichik guruhlarga bo'linib ishlash. Bu uslubda juftlik, yoki kichik guruh bilan birgalikda aniq qo'yilgan u yoki bu masalani, ma'lum belgilangan vaqt ichida o'zaro fikr almashish, muloqot qilish orqali yechish ko'zda tutiladi.

Intervyu - bir yoki bir necha kishilardan axborot olish uchun aniq maqsadga qaratilgan so'rov (savol-javob) o'tkaziladi.

Darsni aniq yo'naltirilgan (mo'ljallangan) savollar asosida olib borish. Bu uslubda mavzu bo'yicha aniq yo'naltirilgan savollar bilan mavzu muhokama qilinadi. O'qituvchi savol-javob suhbatni boshqarib turadi.

Modellashtiruvchi amaliy o'yinlar va mashqlar. Bu uslubda talabalarning o'zlari qatnashadi. Modellashtirishda abstrakt uslublardan foydalanib real voqelikka iloji boricha yaqinlashtiriladi. Bu uslub o'zi bajarganda oson tushunadigan talabalarga qo'l keladi. Modellashtiruvchi o'yinda talabalar o'zlari belgilangan

rollarni bajaradilar.O'z hatti harakatlari orqali zarur malaka va ko'nikmalarni egallashadi.

Referat - baholash nazaridan neytral pozitsiyada turgan holda mavzu bo'yicha og'zaki axborot bo'lib, u aniq ob'yektiv, struktura, kitob yoki risolaning mazmunini qisqacha bayon qilish yoki biron mavzu, asar bo'yicha qisqacha doklad tarzida tayyorlash mumkin.

Doklad yoki qisqacha doklad - mavzu yoki muammoni tartibga solingan holda tanishtirish yoki baholash tarzida bayon qilinadi.

Masala yoki mashq yechish.O'tilganlarni nazariy jihatdan yodga tushirib, berilgan topshiriqni bajarish. Nazariy bilimni mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishga qaratilgan.

Tadqiqot uslubi bu uslub bo'yicha biron muammo yoki gipoteza qo'yilib, guruh birgalikda tadqiqot o'tkazib, mantiqiy hulosa chiqarib, uni ilgari surilgan gipoteza bilan taqqoslanadi.

"Aqliy hujum"- uslubi, muayyan muammo qo'yilib, uni yechish uchun talabalar o'rtasiga qo'yiladi. Unda har bir guruh yoki alohida talabalar tomonidan fikr va mulohazalar bildiriladi. Ular solishtiriladi va hulosa chiqariladi.

Konkurs (tanlovlar)lar o'tkazish. Ma'lum bir mavzu yoki muammo bo'yicha talabalar olgan bilimlarini aniqlash va baholash uchun qo'llaniladi.

Dars o'tishda boshqa qator uslublar ham mavjud bo'lib, ularni o'qituvchi mavzuning mazmuni, guruhning tayergarligiga qarab qo'llashi mumkin.

Mustaqil ish - bu talaba uchun o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni bajarish tushinilib, uning mazmunini, ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini yoritib bilishiga aytiladi.

Mustaqil ishlar turkumiga quyidagilarni kiritish mumkin: nazoratlarga tayyorlanish, referatlar yozish, kurs ishlarini tayyorlash, diplom loyihalariga tayyorgarlik, oliy o'quv yurtlarida o'tkaziladigan seminarlarga rahbarlar ishtirokida tayyorgarlik kabilar. Talaba mustaqil ishlarni bajarishi oliy maktab pedagogikasining muhim vazifalaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.Chunki, shu mustaqil ish tayyorlash davomida talaba, unga ijodiy yondoshadi. Adabiyot,

jurnallardan, gazetalardan, ommaviy axborot vositalaridan keng foydalanishga o'rganib, mustaqil ish sifatida berilgan topshiriqni ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini tub ildizini ochib berishga intiladi va bu intilish talaba shaxsida ilmiy ishlarga bo'lgan qiziqishini orttiradi. Kelajakda ilmiy xodim, olim darajasiga chiqish imkoniyatlariga zamin yaratadi¹.

Amaliy mashg'ulot - o'quv ishlarining mantiqiy davomi bo'lib, bu termin talabalarning mustaqil auditoriya ishlarini umumiy tushunchasi hisoblanadi. Amaliy mashg'ulotlarda mashqlar ishlash, laboratoriya ishlarini o'tkazish, har xil ilmiy tajribalarni o'tkazish kabilar amalga oshiriladi. Bilim berishning bu shaklida ma'ruzalarda olingan nazariy bilimlar bevosita amaliyot bilan bog'lanadi va o'quvchilar tajribalar tomonidan amalga oshiriladi.

Kurs ishi - oliy maktab o'quv rejasida qayd qilingan ta'lim berishning shakllaridan biri. Kurs ishlari biror fanning nazariy kursi nihoyalangan so'ng amalga oshiriladi. Ta'lim berishning bu turi talabalarning ilm olish davrida olgan bilimlarini yanada mustahkamlash, o'sha nazariy bilimlarini qanchalik amaliyot bilan bog'lay olishi negiida paydo bo'ladi. Kurs ishi tayyorlash jarayonini bevosita mustaqil ishlar tarkibiga kiritish mumkin kurs ishi ham o'quv rejada kiritilgan bo'ladi.

Amaliyot - ta'lim shakllaridan yana biri bo'lib, unda talaba oliy o'quv yurtida olgan nazariy bilimlarini bevosita amaliyotga tadbiq qiladi. Bu jarayonda amaliyotchiga albatta o'sha amaliyot o'tilayotgan paytdan va oliy o'quv yurtidan ilmiy rahbarlar tayyorlanadi. Amaliyot talaba uchun kelajak ish faoliyati uchun ilk qadamlar bo'lib hisoblanadi. Chunki mana shu amaliyot davomida amaliyotchi, ya'ni talaba o'zi oliy o'quv yurtida olgan bilimlarini qanchalik amaliyotga qo'llay olishini o'zi nuqtai nazaridan ham baholaydi va bu orqali o'z kelajagini tasavvur qilish, uni his qila olishi ham hech gap emas. Shuni ham aytish kerakki, amaliyot ham ma'lum hafta davomida belgilangan bo'lib, oliy o'quv yurti o'quv rejasida kiritilgan.

¹Muslimov N.A Bo'lajak kasb ta'limi "O'qituvchilarini kasbiy shakllantirish". Monografiya. -T.: Fan, 2004. -129 b.

Diplom ishi - bu oliy o'quv yurtida olgan bilimlarni natijasi, ilmiy izlanishlarning boshlang'ich ko'rinishi bo'lib, ta'lim berishning bir shakli sifatida namoyon bo'ladi. Diplom ishi bir mutaxassislikni tamomlanayotgan talaba tomonidan, shu mutaxassislik rahbari bilan birga tayyorlanadigan vao'quv yurti o'quv rejasida qayd qilingan ta'lim berish shakllaridan hisoblanadi.

Umuman olganda barcha oliy maktablarda ta'lim berishning tashkiliy shakllari amal qilar ekan, ularga bir qator talablar quyiladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Berilayotgan materiallar ilmiy bo'lishliligi;
2. Ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar mashg'ulotlari sistemali tashkil etilishi;
3. Berilayotgan ma'lumotlar, materiallar talabalar yoshiga mos bo'lishliligi;
4. Siyosiy jihatdan to'g'ri va nazariy masalalar amaliyot bilan bog'liqligi;
5. Berilayotgan ma'lumotlarda eng so'nggi materiallarning bo'lishliligi;
6. Bilim berishning tashkiliy shakllarini amalga oshirish jarayonida I. Karimov asarlaridan, ommaviy axborot vositalari materiallaridan unumli foydalanganlik darajasi va hokazolar.

II. Bob. Zamonaviy ta'lim vositalari asosida kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning amaliy ahamiyati

2.1. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish ishlari va ularning bosqichlari

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy maqsadi birinchi navbatda yoshlarni o'zining hayot yo'lini tug'ri belgilashlarida o'zining qobiliyat, qiziqish va moyilligini hamda ijtimoiy ehtiyojni hisobga olgan holda kasb tanlashlarida ko'maklashishdan iboratdir. Bizning jamiyatimiz har bir shaxsning qobiliyatlari to'liq namoyon bo'ladigan, yuqori samara bilan ishlay oladigan faoliyat va shart-sharoitlar bilan band bo'lishiga katta e'tibor bermoqda.

Ta'kidlash joizki, joriy etilgan yangi ta'lim tizimida 17-19 yoshgacha bo'lgan bolalar ota-onalar hamda umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar muassasalari ta'siri doirasida bo'ladilar. Ular shu davr mobaynida kasb-hunarga yo'naltirishlari va kasb egallashlari lozim. Bu ishlar albatta oila, maktab, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, o'quv-ishlab chiqarish kombinatlari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va turar joylardagi turli madaniy maskanlarda olib borilishi lozimdir.

Har bir o'quvchining ahloqiy tarbiyalanganlik darajasini chuqur va har tomonlama aniqlab olish ularga birgalashib pedagogik ta'sir ko'rsatishning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Bunda o'quvchilarning oilada, maktabda, bo'sh

vaqtlarida kattalar, tengqurlari vao‘zidan kichiklar bilan bo‘ladigan barcha munosabatlarini tahlil qilish, ularda mavjud salbiy munosabatlarni vujudga keltiradigan sabablarni aniqlash va bu haqida ota-onalar o‘z vaqtida xabardor qilish lozim bo‘ladi. Ana shu bosqichdan keyin pedagogik tadbirlarni belgilash boshlanadi.¹

Maktabning kasb-hunarga yo‘naltirish xonasi «o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish xonasi tug‘risidagi Nizom» asosida tashkil etiladi va jixozlanadi. Mazkur Nizomda maktab kasb-hunarga yo‘naltirish xonasining vazifalari, unda o‘tkaziladigan tadbirlar, stend va unda yana qanday ma‘lumotlar bo‘lishligi haqidaaytib o‘tilgan. Maktabning kasb-hunarga yo‘naltiruvchi mutaxassisi mazkur xonaning mudiri hisoblanadi.

Kasb-hunarga yo‘naltirish xonalarining faoliyatini tashkil etish. Har bir umumiy o‘rta ta‘lim maktabida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari bilan shug‘ullanuvchi xonalar tashkil etiladi. Xonani maktab kasbga yo‘naltiruvchi mutaxassisi boshqarib boradi. Maktablardagi kasb-hunarga yo‘naltirish xonasining ish mazmuni quyidagilardan iborat: o‘qituvchilar uchun kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha sinf raxbarlari va fan o‘qituvchilari bilan suxbatlar o‘tkazish, ota-onalar uchun leksiyalar uyushtirish maktab uchun kasb - hunarga yo‘naltirishga oid metodik materiallar tayyorlash, kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxatlarini tuzish.

Kasb-hunarga yo‘naltirish xonalari stendlar, har xil kasbiy yo‘nalishdagi sxemalar, kasblar ro‘yxati va ular haqidagi ma‘lumotlar shuningdek, kasb-hunarga oid xikmatli so‘zlardan iborat shiorlar, stollar va kasbga yo‘naltirish bo‘yicha xilma-xil metodik qo‘llanmalar va shkaflar bilan jixozlanadi.

Maktablardagi kasb-hunarga yo‘naltirish xonalarini yaxshi tashkil qilinishi va belgilangan tadbirlarning aniq, puxta va mazmunli o‘tkazilishi keng jamoatchilikning diqqat-e‘tiborini shahar va qishloq maktablarida ta‘lim olayotgan yoshlar o‘rtasida kasb hunarga oid ma‘lumotlarni kengaytirish ularga bu soxada

¹N.Shodiyev “Studentlarga o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llash ishlarini o‘rganish” Toshkent “O‘qituvchi” 1992 yil.

tegishli maslaxatlar berish hamda kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini jonlantirishga keng jamoatchilikning diqqat e'tiborini qaratish lozimligini belgilab bermoqda. Hozirgi paytda kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini jonlantirishda maktab kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassisning roli muxim ahamiyatga egadir.

Shu maqsadda kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini maqsadli ravishda amalga oshirish uchun maktablarda kasbga yo'naltiruvchi xodimlarning malakasini oshirishga aloxida e'tibor berilishi lozim.

Maktab kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassisining asosiy vazifasi o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni ta'minlovchi barcha ma'lumotlar bankini yaratishdan iborat. Bu maqsadda kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassis tuman (shahar) tashxis Markazidan olgan axborotlar, kasblar ro'yxati, tasnifi xududiy kasblar ro'yxati, kasblarga bulgan e'tijoy va boshqa kasbiy tashxis metodikalari tavsiya va yuriknomalaridan foydalanadi. Kasbga yo'naltiruvchi mutaxassis o'z faoliyatini kasb-hunarga yo'naltirish xonasidan olib boradi, xonaning ish rejasi va ish grafigini ishlab chiqadi va qaysi sinflar bilan kachon, qanday tadbirlar o'tkazilishi aniq yozib kuyiladi. Tuman (shahar) tashxis Markazlaridan olingan ma'lumotlar kasb-hunarga yo'naltirish xonasining devoriga o'quvchilarning ukishlari hamda mazkur ma'lumotlar bilan ishlashlari uchun stendlarga osib qo'yilmogi lozim. Maktab yo'naltiruvchisining xaftalik ish grafigi qandaybo'lmogi lozim. Bizning fikrimizcha xaftaning 6 kunida har xil tadbirlar o'tkazish rejalashtirilgan bo'lishi lozim. Namunaviy xaftalik tadbirlar rejasini keltiramiz;

Dushanba - Kasbiy axborotlar berish.

Seshanba - Kasblar tasnifi bilan tanishtirish.

Chorshanba - Xududiy kasblar va kasblarga extijoy haqida tushuncha berish.

Payshanba - Ota-onalar bilan ishlash (suxbat kasbiy tushuntirishlar va surovnomalar o'tkazish).

Juma - Kasbiy tashxislar o'tkazish (kasbiy tashxis metodikalari, surovnoma, qo'llanma va boshqalar asosida). Kasbiy maslaxatlar berish.

Shanba - Qilingan ishlarning taxlili, tashxis natijalarini kayd etish. Kelasi xafta ishlarini rejalashtirish.

Mazkur namunaviy reja albatta kasbga yoʻnaltiruvchi mutaxassis faoliyatini barcha kirralarini toʻliq oʻz ichiga olmasada, ularning faoliyatida bajariladigan ishlarning biror bir tizimini shakllanishiga yordam beradi. Bu namunaviy reja maktabning oʻziga xos sifatlariga mos ravishda oʻzgartirish mumkin.¹

Respublikamiz mustaqillika erishgandan keyingi yillarda taʼlimni isloh qilish boʻyicha koʻpgina qaror va qonunlar qabul qilindi, ularda oʻquvchilarni kasb tanlashga yoʻnaltirish vazifalari ham yetarlicha oʻz ifodasini topmoqda. Bunga Xalq taʼlimi vazirligining 2002 yil 10-oktyabrdagi 153 sonli buyrugʻi asosida oʻquvchilarni kasb - hunarga yoʻnaltirish tizimini takomillashtirishning Yangi konsepsiyasini ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Hozirgi kunda kasbga yoʻnaltirishdan maqsad - oʻsib kelayotgan yosh avlodni kasbni (kasblarning tiplari, turkumlari, gruppalari, boʻlimlarini) ongli ravishda tanlashga tayyorlashdir. Kuzatish - oʻquvchilarni oʻrganishning keng ommalashgan metodidir. Bu metod muayyan maqsadni koʻzlaydi, ish reja asosida olib boriladi, kuzatishning yakunlovchi natijalari qayd qilinadi. Insoning ilmga boʻlgan chanqoqligini qondiruvchi birinchi ziyo chashma bu maktabdir. Maktabda oʻquvchi shaxs sifatida shakllana boshlaydi. Unda dastlabki kasbiy xissiyotlar yuzaga keladi. Bular mehnatsevarlik, mehnat qilish zarurligini tushunish va anglash, oʻz ishini rejalashtira va nazorat qila bilish, ish oʻrnini toʻgʻri tashqil qilish, iqtisodiy - tejamkorlik, sabr - toqatlilik, talabchanlik, topshiriqni bajarishning eng oqilona usuli (yetti oʻlchab, bir kes) tanlab ola bilish hamda vaqtni tejash va shu kabilardir. Bolalarni kasblar olamiga asta - sekin olib borish, ularni shu olamda moʻljall olishga oʻrgatish zarur.

Oʻqituvchi - oʻquvchini darslarda kuzatish, u bilan suhbatlashish, bola faoliyati mahsulini tahlil qilish jarayonida uning baʼzi xususiyatlarini qobiliyat, qiziqish, moyilliklarni payqab oladi, bu xislat va fazilatlarini shakllantirib bular kasbni belgilashda asosiy omil boʻlishi mumkin. Bolaning kasbiy muhim xislat va fazilatlarini barvaqt aniqlash va esa keyingi oʻz xususiyatlariga qarab kasbni toʻgʻri

¹Yoʻldoshev J. Taʼlimimiz istiqboli yoʻlida. -T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1996. 224- b.

tanlash, uni muvoffaqiyatli ravishda o'zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini berishi mumkin.

1. Ko'pincha mustaqil Hamdo'stlik mamlakatlari hamda Respublikamiz olimlari o'tkazgan ilmiy - tadqiqotlarida bolajonlarning rayiga, hoxish - istagiga, intilishini uch bosqichda tajriba - sinov ishlarini umumlashtirib tahlil qilmokdalar. Diagnostik suxbatlar - yakka tartibda yoki jamoa tarzda o'tkazilishi mumkin. Psixolog olim K.M.Gurevich 3-4 yoshli bolalarda motivlarning birlamchi tobeligi va dastlabki irodaviy harakatning paydo bo'lishini tatbiq etib, bolaga jimjimador uyinchoqni olishdan - oldin o'zi yoqtirmagan ishni bajarish topshirig'ini bergan. Olingan ma'lumotlardan quyidagilar ma'lum bo'ldi: a) - maktabgacha yosh davrida ezgu orzular yo'lida harakat qilish imkoniyati to'g'iladi; b) - ushbu orzularning bevosita bog'liq sabablari bevosita sabablarga qarganda ertaroq paydo bo'ladi; v) - bevosita idrok qilinadigan narsalarga aloqador hoxishni bajarishga qaraganda, narsaning o'ziga aloqador hoxishni bajarishni muayyan muddatga kechiktirish osonroq. Xulosa qilib buning zahirida bolaning mayinligi, niyati, orzusi, kasbga qiziqishi, hoxish - istagi va tilagining mazmuni hamda xususiyatidagi o'zgarishlar yotadi. Maktab o'quvchilarining tahminan 25-30% foizida tanlangan kasbga nisbatan kasbga barqaror qiziqishlar boshlang'ich kichik yoshlaridayoq shakllanar ekan.¹

O'qituvchining vazifasi: - o'quvchilarning qiziqishlarini mumkin qadar oldinroq aniqlashda va davlat, xokimiyat, maxalla, oila talab - extiyojlariga muvofiq shu qiziqishlarni rivojlantirishda, inson shaxsini har tomonlama uygun barkamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

2. o'quvchini mehnat qilishga o'rgatish, nafaqat mehnatni sevishga u bilan shunday uygunlashishiga ko'niktirish kerakki, mehnat uning vujudiga singib ketsin. Ularni kasb hunarga yo'naltirish, orkali biror kasb egasi bo'lishida, o'quvchilar mehnatisiz biror - bir narsaga erisha olmasliklarini tushunib yetsinlar (4 - shakl) da ifodalangan.

¹Inoyatov U.I. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasasiga rahbarlik qilish uslubini takomillashtirishning psixologik-pedagogik omillari.Kasb-hunar ta'limi j., 2002.1-son.6-7 b.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi (birinchi bosqichda) bolalar ta'lim - tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat ta'lim standarti talablarida ham maktabgacha yoshdagi bolalarning odob - ahloqi va mehnatga layoqatliligi jihatdan yetuk komil inson bo'lishiga katta e'tibor beriladi. Bolalar ilk yoshdan boshlab mehnatsevar bo'lish va boshqalar mehnatni qadrlash kabi odatlarga o'rgatiladi. Mana shu odatlar bolani odob-ahloqli, mehnatga moyillik qilib tarbiyalash mazmunining asosini tashkil etadi. Odob - ahloqi va mehnatga layoqatliligiga oid egallashlari zarur bo'lgan minimal talablari:

- kattalar mehnatini qadrlash lozimligini bilish;
- o'ziga ishonish;
- o'z - o'ziga xizmat qilish;
- uyda yoki bog'cha xovlisida yengil yumushlarni bajara olish;
- mahallada yoki tomorqada mehnat qilayotgan kattalarga ko'maklashish;
- o'yinchoqlarni va xona anjomlarini o'z joyiga qo'yishni bilish;
- mehnatsevar bo'lish yaxshi odat ekanligini anglash va x.k.lar amalga

oshirilsa, boshlang'ich kichik yoshdagi, o'rta yoshdagi, katta yoshdagi, akademik litsey, kasb-hunar kolleji bosqichlarning asosi hisoblanadi.

4. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish yosh ikkinchi bosqichi (boshlang'ich kichik yoshdagi) quyidagi mazmuni ega bo'ladi:

Boshlang'ich I-IV sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishdan maqsad ularni mehnat, kasb turlari, yo'nalishlari bilan tanishtirib borish va o'quvchilarda kasb faoliyatiga bo'lgan qiziqishni shakllantirishdan iborat. Bunga erishish uchun ularda mehnat va kasb olami haqida tasavvur paydo qilish, - o'quvchilar bilan «Kim bo'lsam ekan», «Kasbim-faxrim», «Kasb tanlash - hayot ko'zgusi» kabi mavzularida suhbatlar, bahslar munozaralarni tashkil qilish; o'z-o'zini baholay bilish malakalarini hosil qilish; - intellektual va hissiy irodaviy hislarni rivojlantirish: Bu yoshdagi bolalar mehnatga halol munosabatda bo'lishlari uning hayotdagi va jamiyatdagi rolini tushuna bilishlarida, har qanday ish bajarish uchun intiluvchanlik, tabiat, atrof-muhitga va uning boyliklarini saqlash va boshqalarda.

5. Uchinchi bosqich (5-7 sinflar) o'rta yoshdagi o'quvchilarda kasb tanlash va jamiyatda o'z-o'rnini belgilash bilan bog'liq xolda o'zida bo'lgan qiziqish, qobiliyat va ma'naviy-moddiy qadriyatlarni anglashga zamin yaratish. Bo'lg'usi kasbiy faoliyatlar bu yoshdagi o'quvchilar uchun hayotdagi o'z o'rnini aniqlash va tayyorlashda turtki, o'z shakllanish imkoniyatlarini ochishi va kasb tanlashi uchun zarur bo'ladi.

6. To'rtinchi bosqich (8-9 sinflar) katta yoshdagi o'quvchilarini kasb tanlashga yo'naltirish ishlarining mazmuni shaxsning ma'naviy fazilatlari hamda xislatlarini va jamiyat oldidagi burchi, javobgarlik xislatlarini shakllantirish bilan ajralib turadi. Bu esa ularda tashabbus bilan chiqish, mustaqil qaror qabul qilish, xatti - harakatlari natijasida bilish va o'zining faoliyati nimaga olib kelishini sezishi bilan belgilanadi.

7. Beshinchi bosqich (akademik litsey, kasb hunar kolleji) talabalarning kasb hunarga moyilligini, layoqatlarini, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, ularga tanlangan yo'nalishlari (Metal va unga ishlov berish, yog'ochga va unga ishlov berish; Gazlamalarga ishlov berish; Oziq - ovqat mahsulotlariga ishlov berish; qishloq xo'jalik asoslari; Xalq hunarmandchilik) bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasblarni egallash imkonini beradi. Xalqimizda ilmu - hunar ulug'lanib kelgan. Agar inson biron - bir kasbni mukammal egallasa, hunar unga huzur bag'ishlaydi.

O'quv protsessida talabalarni mustaqil ruhda tarbiyalash asosan ijtimoiy-siyosiy fanlar sikli zimmasiga, ularni tarbiyaviy ishga tayyorlash esa psixologik-pedagogik fanlar va xususiy metodlar zimmasiga yuklatiladi. O'qituvchining yoshlarning ma'naviy murabbiysi roli ortib borishi bilan uning o'ziga g'oyaviy e'tiqodi va uni tarbiyachisi sifatida tayyorlash harakteriga yuksak talablar qo'yiladi. Shuning uchun o'qituvchi-tarbiyachining tayyorgarligiga yuqorida ko'rsatilganidek yondashish yetarli emas, chunki bo'lajako'qituvchilarda tarbiyaviy funksiyalarni tarkib toptirishda tabiiy - matematik ixtisosni beruvchi fanlarning tarbiyaviy imkoniyatlarni hisobga olinmagan.

Vaholanki, mutaxassisligiga doir bilim beruvchi mashg'ulotlarda bo'lajako'qituvchi bir tomondan, o'zining kelgo'si faoliyati uchun zarur bo'lgan ilmiy bilimlar majmuini egallab oladi, ikkinchi tomondan, ana shu konkret bilimlar asosida ularda shaxsiy sifatlar: dunyoqarash, ma'naviy qiyofa shakllanadi.

«...Hozir har bir o'qituvchi har qachongidan ham ko'proq darajada, tarbiyachi bo'lishi kerak»¹ degan so'zlar hozirgi sharoitda ayniqsa aktual jaranglaydi.

Bo'lajak o'qituvchi pedagogika oliy o'quv yurtida tabiat va bilish nazariyasiga, jamiyatga ta'lluqli ikkita parallel va o'zaro bir-birini to'ldiradigan juda ko'p bilimlarni egallab va ularni o'zining amaliy faoliyatida qo'llab, o'quvchilarda voqyelikka dialektik - materialistik yondashish hamda tabiat va jamiyat hodisalarini ular nuqtai nazaridan analiz qilish malakalarini tarkib toptirishi kerak.

O'quv programmalarining tarbiyaviy imkoniyatlaridan yanada keng foydalanish maqsadida ijtimoiy fanlarni kasbiga doir bilim beruvchi kurslar bilan bog'lanish zarur. Bu faqat yuqori kurs talabalarida emas, balki kurs talabalarida ham ijtimoiy fanlarning qonuniyatlarini o'z ixtisosligida ixtisoslik beruvchi fan problemalarida ijodiy qo'llash ko'nikmalari hosil qiladi, ularni chuquroq o'rganish shtiyoqini oshiradi. Bunday aloqani amalga oshirish bo'lajako'qituvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishiga tayyorlashda ham foydali, chunki ma'lum bir fan doirasida talabalarga o'qituvchilarni kasb tanlashga yo'llashdek murakkab prolemani hamma tomonlarini ochib berish mumkin emas. Masalan, tabiiy-ilmiy sikldagi fanlarni o'qitishda ishlab chiqarishning ilmiy, ilmiy-texnik asoslarini, turli kasblarning mazmuni va ishlash sharoitlarini yaqqol yoritish mumkin bo'lsa, ijtimoiy-iqtisodiy tomonlarini ochib berish zarur. Ijtimoiy fanlarning kasbiga doir bilim beruvchi fanlar bilan aloqasini amalda ro'yobga chiqarish tegishli kafedra o'qituvchilarining birgalikdagi ishlarini rejalashtirishni nazarda tutadi. Buning uchun esa tegishli tayyorgarlik zarur, ya'ni ijtimoiy kafedra o'qituvchilari kasbiga doir bilim beruvchi fanlar haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lishi, aksincha, bu

¹M.Quronov. «Otlar kitobi» -T.:2006. 12-13betlar.

fanlar o'qituvchilari o'rganilayotgan hodisalarga dialektik yondashish ko'nikma va malakalarini egallashi, bu malakalarni bo'lajak o'qituvchilarga singdira bilishi kerak.

Bo'lajak o'qituvchining yuksak darajadagi siyosiy ongliligi, uning kelgusida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishi samaradorligini belgilab beradi. O'quv rejasiga muvofiq pedagogika Universitetida o'qish muddati to'rt yil bo'lganda ikkinchi kursda, o'qish muddati besh yil bo'lganda uchinchi kurs o'rganiladi. Bu vaqtga kelib, ixtisoslik bo'yicha bilim beruvchi fanlarni o'rganish endigina bog'langan yoki davom etayotgan bo'ladi. Masalan: «Fizika» № 2105 ixtisosligi uchun umumiy fizika kursining faqat birinchi qismi - «Mexanika» nio'rganish tugallanadi. Binobarin, qo'yi kurs talabalari yetarli darajadagi maxsus bilimlar zapasiga ega bo'lmagan va ixtisosligi bo'yicha yetarli nazariy tayyorgarlik ko'rmagan holda shu fanni o'rganishga kirishadilar. Vaholanki, dialektik materializm o'quv programmasining mazmuni ularning tayyorgarligi ko'rgan bo'lishini taqazo qiladi. Masalan inkorni inkor qonunni o'rganishda bo'lajak matematika o'qituvchilariga evklid va noevklid geometriya mohiyatini tushunishda dialektrik materializmning metodologik vazifasini ko'rsatib berish muhimdir. Talabalarning o'z ixtisosligi bo'yicha bilim beruvchi fanlardan tegishli misollarni o'rganishdan oldin ularga inkorni inkor qonunni mazmunini qanday qilib ochib berish mumkin. Ko'pchilik o'qituvchilar bu qonunni tahlil qilishda evklid geometriya fani rivojlanishining yangi mazmun bilan boyitadi va chuqurlashtiradi, bo'lajak matematik o'qituvchilarni juda murakkab, ba'zan xato qarama-qarshi fakt, xodisalarni ilmiy tahlil qilish va ularga dialektik yondoshish metodlari bilan qurollantiradi.

Bizning maqsadimiz mustaqil davlatimiz har bir avlodni barkamol vao'z kasbining raqobatbardor ustasi etib tayyorlashdan iboratdir. Buning uchun talabalarda mehnat ta'limi yo'nalish bo'yicha umum kasb va maxsus fanlar yo'nalishi bo'yicha umum kasb va maxsus fanlarida o'ziga yoqqan kasbga qat'iy qiziqish hosil qilish uchun zarur umum kasbiy ma'lumotlar bilan tanishtirilmog'i lozim.

O'qituvchi oldiga talabalar bilan kasbga yo'llashga doir ishlarni olib borishni u yoki bu darajada ko'ndalang qilib qo'yadigan umum kasb fanlari dasturlari orasida «Umum maxsus» fanlar kursining dasturini, «Texnik ijodkorlik va dizayn», «Hisoblash texnikasi elementlari», «Radiotexnika» kurslari dasturlarini qayd qilib o'tishi mumkin. Talabalarni kasbga yo'llash ishiga tayyorlash masalalari «Umum texnik va kasb fanlari» kompleks kursida aniqroq shakllantirilgan. «Umum texnik va kasb fanlari» kursida «Konstruksion materiallar texnologiyasi» ko'proq darajada kasbga yo'naltirishda yordam beradi. Bu dasturning quyidagi temalarida ochib berilishi mumkin¹.

1. Kirish. Konstruksion materiallar texnologiyasining texnologik fanlar, mehnat politexnik ta'lim bilan aloqasi.

2.Qora rangli metallarni ishlab chiqarish. Domna pechining tuzilishi.Domna pech sexining strukturasi. Domna jarayonin avtomatlashtirish va intensivfikatsiyalash.

1. Zagatovkalarni tayyorlash usullari. Qo'ymakorlik.Qo'ymakorlik texnologiyasi.

2. Metallarga mexaniq ishlov berish asoslari. Asosiy metal qirquvchi stanoklar: parmalash, frezerlik pardozlaydigan stanoklar va ulardan foydalaniladigan sohalar.

3. Ekskursiyalar. Mashinasozlik yoki metall qo'yuvchi zavod (seh) ga. Mashina yig'uvchi yoki remont zavodiga.¹

Yuqorida biz sanoatning turli tarmoqlarini (qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik va metallga ishlov berish), ishlab chiqarish jarayonning texnikasi va texnologiyasi, qora va rangli metallurgiya sohasida olimlarning roli, payvandlash (savrka), ishlab chiqarish jihozlari hamda texnologiyasi va boshqalarni ko'rsatib o'tdik. Bu hol mehnat ta'limi o'qituvchilariga o'z faniga o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashda unumli mehnat bilan bog'lashni amalga oshirish imkoniyatini

¹www.google.uz

¹Maktabdan tashqari ta'limga qo'yilgan davlat talablari.O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish. - T.: Ma'rifat-Madadkor, 2000. - 135-148-b.

yaratadi va ular:-o'quvchilarning umum kasbiy nazariyasini puxta bilib olishga erishishdir, ular umum kasb fanlarini yaxlitda qo'llashni o'rgatadilar.

«Texnik - ijodkorlik va dizayin» kursining o'quv rejasi o'z oldiga qo'ygan maqsadi bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchisini politexnik ta'lim sistemasida kasbiy tayyorgarligini ta'minlash bo'lib, u o'z navbatda mehnat ta'limini tubdan yaxshilashga, o'quvchilarni ijtimoiy foydali, ishlab chiqarish mehnatiga tayyorlashni takomillashtirish lozim.

Bu kursning kirish qismida «Maktab o'quvchilarining politexnik va mehnat ta'limini amalga oshirish, o'quvchilarning o'quv ishlab chiqarish brigadalari yoki maktab o'quv tajriba uchastkasidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish o'quvchilarni qishloq hujalik kasblari bo'yicha kasbga yo'llashni amalga oshirish, maktabda qishloq hujalik bo'yicha fakul'tativ kurslarni o'rganishni amalga oshirish uchun qishloq hujalik asoslarini bilish zarur»¹ deb ta'kidlanadi.

Mehnat ta'limi yo'nalishi bo'yicha qishloq xo'jalik asoslarini barcha bo'limlarini o'rganish faqat talabalarning qishloq xo'jalik tayyorgarliklarigina emas, balki ularni o'quvchilarni kasbga yo'llash ishiga tayyorlashga ham yordam berishi kerak.

Bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchilarini mehnat va kasb-hunarga tayyorlash, mustaqil hayotga yo'llashdagi muhim ishlardan biri, maktablarda mehnat ta'limi yo'nalish bo'yicha o'tiladigan mehnat darslarining saviyasi va samaradorligini oshirishdir. Bu maqsadda o'qitishning turli xil ilg'or shakl va usullaridan oqilona yangi pedagogik texnologiyasi asosida «Zinama-zina», «Aqliy hujum» dan foydalanish talabalarning ijodiy fikr yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishga, mehnat malakalarini takomillashtirishga imkon beradi

¹Inoyatov U.I. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasasiga rahbarlik qilish uslubini takomillashtirishning psixologik-pedagogik omillari.Kasb-hunar ta'limi j., 2002.1-son.6-7 b.

2.2. Zamonaviy ta'lim vositalari orqali o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish uslubiyoti.

O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muammo. Yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash g'oyat muhim vazifadir. Shu boisdan yoshlarning kasb tanlash muammosi umumiy o'rta ta'lim maktabi ishida katta o'rin tutadi. "Mening orzuim", "Kim bo'lsam ekan", "Men sevgan kasb", "Kasbning yomoni yo'q", "Kasbim faxrim" degan mavzular har bir yigit va qiz uchun asosiy muammolardan biridir. O'quvchilarning o'qishga bo'lgan chaqqonligini qondiruvchi birinchi ziyo-chashma bu maktabdir. Ta'lim jarayonida o'quvchilarda kasblar tiplarini mustaqil holda bilish (Inson tabiati, inson texnika, inson badiy timsol, inson belgilar tizimi), tanlayotgan kasbning talablarini o'z shaxsiy sifatleri bilan qiyoslay olish, o'z moyilligi qobiliyati, salomatligi tanlanayotgan kasbga muvofiqligini, to'g'ri baholash ko'nikmalari shakllanishi lozim. Uslubchining kasb tanlashga yo'llashdagi vazifasi - har bir o'quvchini, uning kasbga va bilimga qiziqishlarini, moyillik, ehtiyojlari, atrof-muhitni, oilaviy ahvolini yaxshi va har tomonlama o'rganishdan iborat bo'lishi kerak.

Bu maqsad va vazifalaridan kelib chiqib uslubchi:

- o'quvchilarga "kasb" tushunchasining ma'nosini yoritib berish, ularni kasblarning klassifikatsiyalari bilan tanishtirish;
- o'quvchilar "kasbiy qiziqish", "mayllik" tushunchalari bilan tanishtirish;

- o'quvchilarni kasb tanlashga asosan o'quv va ijtimoiy - mehnat uyushmasiga nisbatan ongli yondoshishga erishish;
- o'quvchilarga kasb tanlashda o'z salomatligini hisobga olish zarurligini tushuntirish;
- o'quvchilarga "Kasbiy layoqat" tushunchasining mohiyatini ochib berish, kasb tanlashga mulohaza bilan yondoshishni shakllantirish;
- qobiliyatlarni kasb tanlashdagi ahamiyatini tushuntirish, umumiy va alohida qobiliyatlar haqida tasavvur hosil qilish;
- har bir o'quvchiga tanlangan kasbini egallashi uchun amaliy yordam ko'rsatishi, unda ijtimoiy - mehnat uyushmasiga ijodiy yondoshishni rivojlantirish.

Bugungi kunda siz biz qo'yayotgan ilk poydevorga kasb tanlashga yo'llash, kasb-hunarga yo'naltirish o'quvchilarning ijtimoiy - mehnat uyushmasi ishlariga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi

2. Kasb to'g'ri tanlanganda ular o'z qobiliyatlari va qiziqishlarini yaxshiroq ro'yobga chiqishlari hamda jamiyatga ko'proq naf keltirishlari mumkin. O'quvchilarni kasb tanlashda yo'llash, kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining asosiy ijrochisi mehnat ta'limi o'qituvchisi - uslubchi zimmasiga tushadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasb tanlashga yo'llash va mehnat ta'limidan dars beradigan o'qituvchilar yuqori natijalarga, dars samaradorligini erishishi uchun albatta quyidagilarga e'tiborni qaratish kerak. O'qituvchi- slubchi:

- zamonaviy ilmiy- texnikaviy taraqqiyotning va ma'naviyat-moddiy qadriyatlarining mohiyati chuqur tushuna bilish;
- pedagogik texnologiyani va innovatsiya asl mohiyati va uslublarini tushina - qo'llay bilishi;
- o'quvchilarni mustaqil kasb hunar o'rganishga, erkin kasb tanlashga sharoit yaratish;
- pedagogik texnologiyalardan foydalanar ekan, o'zi ham yangi yaratuvchi yangi xilma-xil ("Kasb darsi", "Aqliy hujum", "Zinama-zina") uslublarni o'ylab topishi, amalda qo'llashi;

- an'anaviy darslar orqali o'qituvchilarning yakka tartibda (individual) ishlashga erishish;

- test topshiriqlarni o'quvchi faoliyati darajalariga mos holda tuzish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

O'qituvchi uslubchilarimiz uchun bugungi kun talabi mana shulardan iborat.

3. Hozirda o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashda pedagogik-psixologik va umumtexnik va kasb ta'limi mutaxassilari olib borayotgan ishlar salmoqli o'ringa ega. Darhaqiqat, o'quvchi yoshlarning kasbiy bilimlarini va ko'nikmalarini shakllantirish, ularga to'g'ri yo'nalish berish kasb hunarga yo'naltiruvchi mutaxassislar, pedagog-psixolog tomonidan boshqarilib kelinmoqda. Quyida pedagogik-psixologik va umukasbiy tayyorgarligiga to'xtalib o'tmoqchimiz.

Jumladan: Birinchidan - o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltiruvchi va pedagog-psixologlarni hamda umumtexnik va kasbiy ta'lim mutaxassislarni malakasini va saviyasini oshirib borsak, ularga qayta tayyorlov o'quv kursi va seminarlar tashkil qilib amaliy yordam berib, ularning moddiy ehtiyojlarini qondirilishi;

Ikkinchidan - o'quvchilarni kasb-hunarga qiziqishlarini, moyilliklarini kuchaytirish maqsadida har xil kasb hunar navatorlari bilan davra suhbatlari, baxs-munozaralar, hunarmandlar maydoniga sayohatdan foydalanganda ham mahorat bilan foydalanishi;

Uchinchidan - o'quvchilarni kasb - hunarga yo'naltirishda mahalla va ota-onalarning roli juda kattadir. Buning uchun sinf rahbarlari bilan ota-onalar hamkorlikda har oyda bir marta "Kasbiy maslahatlar kuni"ni tashkil etib, ular bilan turli kasb-hunarlariga tayyorlashda muammo va yechimlar davra suhbatlarini o'tkazish.

To'rtinchidan - bir necha yillar davomida halol mehnat bilan elga tanilgan xalq hunarmandlari va mehnat faxriylari bilan "Mehnat, mehnatning tagi rohat", "Mehnat-baxt keltiruvchi omil", "Kasb-u kamol xusn-u jamol" kabi mavzularda uchrashuvlarni tashkil etish¹.

¹www.ziyoistagan.uz

Kasb tanlash (kasbga yaroqlilik) - metodlaridan kasbga yo'naltirishning faqat yakunlovchi bosqichida foydalanish mumkin, bu kasbni egallagani holda dastlabki tibbiy-fizilogik va psixologik ko'rikdan o'tmagan yigit qizlar uchun tanlagan kasbi zid bo'lishi ham mumkin. Shu boisdan kasbga yo'naltiruvchi boshlang'ich bosqichda ham, shuningdek yakunlovchi bosqichda ham o'tkazilishi lozim.

Kasbga yaroqlilik - mazkur kishining ushbu kasb bo'yicha mehnat vazifalarini bajarishi uchun yaroqli yoki yaroqsizligini qayt qilishdan iborat. Kasbga yaroqlilikni boshqa jihatdan ham:

1. odamo'zi tanlagan kasbga yaroqlimi yoki yo'qligi;
2. hayot yo'lini tanlagan chog'da u nimalarga amal qilishi lozimligi;
3. unio'qitish masalasiga qanday qilib bir muncha oqilona yondashish, ya'ni unda kasbga yaroqlilikni qanday qilib g'oyat maqsadga muvofiq tarzda shakllantirish, tarbiyalash va rivojlantirish mumkinligi jihatdan ham ko'rib chiqish kerak.

Kasbga yaroqlilik o'quv va mehnat faoliyatiga shakllanadigan shaxs fazilatidir. Kasbga yaroqlilikni shaxsning kasbga nisbatan qo'yilgan talablarga mos bo'lgan tug'ma yoki hosil qilingan psixofiziologik xususiyatlari yig'indisi deb qarash yaramaydi. Faqat ba'zi kasblar (sozanda, rassom va shu kabilar) uchun muayyan tabiiy ma'lumotlar talab qilinadi:

Ya'ni psixologik, mehnat o'qituvchisi va boshqalarning vazifasi o'quv kasb (mutaxassislik)ni yoki o'quv yurtini to'g'ri yoki noto'g'ri tanlaganini;

-tanlagan kasbi yoki o'quv yurti uning mayillari yoki qobiliyatlariga mos yohud mos emasligini;

-kasbni yoki o'quv yurtini tanlash vajlari, ota-onalarning, o'qituvchilarning va shu kabilarning fikri qanday ekanligini aniqlashdan iborat.

1.o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlari, moyiligi qobiliyatini ana shunday ma'lumotlar asosida aniqlanadi.

2. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishini amalga oshirishda o'qituvchilar va sinf rahbarlari ota-onalar qo'mitasi kengashi; to'garaklarning rahbarlari bevosita ish olib boradilar. Maktabdan tashqari muassasalar, odatda qiziqishlari, moyiligi va

qobiliyati yetarli darajada namoyon bo'lgan o'quvchilarni birlashtiradi. Bunday hollarda o'quvchilarda ijodkorlik va tashabbus ruhi ustunlik qiladi, ular amaliy faoliyatning xususiyati esa muayyan ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Maktabdan tashqari muassasalar (o'quvchilar uyi, bolalar kutubxonalari, yosh tabiatshunoslar va yosh tajribachilar texnika stansiyalari, yoshlar klubi, ixtirochilik-ratsionalizatorlar byurolari va shu kabilar) kasbga yo'naltirish umumiy ishi sistemasida faol qatnashadilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishda o'qituvchilarning maxsus qiziqishlari shakllanadi va ularning qobiliyatlari rivojlanadi. Bular mehnat politexnik ta'limini to'ldiradi, o'quvchilarda kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatga molik sabablarini shakllantirishga yordam beradi, xalq xo'jaligi turli tarmoqlari bilan tanishishni kengaytiradi, o'quvchilarni qiziqtiradigan kasblar va mutaxassisliklarni, avvalo o'z tumani, viloyatidagi kasblar va mutaxassisliklarni chuqur bilib olishga imkon beradi. Kasblarga yo'naltirish bo'yicha fakul'tativ kurs kasbga oid ma'lumot olish, uzil-kesil kasb tanlashga yo'llash, real ishga joylashishi hamda o'quvchilarga maslahat berish imkoniyatlarini kengaytiradi.

3. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ish shakllarini bir qancha belgilariga qarab quyidagicha tavsiflash maqsadga muvofiqdir:

I. O'tkazilayotgan tadbirlarda qatnashadigan o'quvchilar soniga qarab:

1. Bir necha parallel sinflar, aralash sinflar qatnashadigan tadbirlar.

II. Tashkil etish uslublariga qarab:

1. Yalpi tadbirlar - leksiyalar, yig'ilishlar, konferensiyalar, olimpiadalar, kinofil'mlarni ko'rish; tematik kechalar, ishlab chiqarish ilg'orlari bilan o'tkaziladigan uchrashuv kechalar; kasb bo'yicha kalendar kunlar.

2. Guruhiy tadbirlar - ekskursiyalar, maslahatlar, kasblar bo'yicha tanlovlar, yosh texniklarning musobaqalari, korxonalar va yetakchi kasblar bilan tanishish maqsadida jonajon o'lka bo'ylab sayyohlik yurishlari.

3. Yakka-yakka o'tkaziladigan tadbirlar - kasb haqida maslahat beriladigan suhbatlar, kasb to'g'risida tavsiya etilgan kitoblarni o'qish, uchrashuvlar, konstruktorlik, tajriba ish yuzasidan yakka tartibda beriladigan topshiriqlar;

o'quvchini qiziqtiradigan fan va texnika sohasini chuqurlashtirish va rivojlantirish maqsadida qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash.

Kasblar bilan tanishtirish; -sayohatlar, malakali ishchilar va mutaxassislar bilan uchrashuvlar, o'qituvchining hikoyasi yoki suhbat, kinolardan parchalar, fotosuratlar, ro'znoma va oynomalardan olingan maxsus materiallarni namoyish qilish uchun proyeksion apparatlardan foydalanish; -taklif qilingan ishlab chiqarish ishchisini suhbat; kasblar haqidagi ma'lumotnomalar bilan tanishish; -mehnat va ishlab chiqarish ta'limi bilan bog'liq kasblar to'g'risidagi ocherklar o'qish; -mutaxassislar bilan suhbatlar o'tkazish yordamida axborot materiallarini to'plash; -fotosuratlar, fotoal'bomlar ko'rsatish; ishlab chiqarish sharoitida malakali ishchilar kasbiy faoliyati to'g'risidagi kinofil'mlarni namoyish qilish; -bazaviy xo'jalikda ishlab chiqarish tajribasi vaqtida kasblar bilan tanishish.

Kasbga yo'naltirish tadbirlarini ro'yobga chiqarish vositalari bo'yicha; -“O'qish uchun qayerga kirish kerak” ma'lumotnomasining nashr etish, kasblar va kasb hunar kollejlari haqidagi plakatlar, e'lonlar, reklama varaqalari; -mazkur iqtisodiy rayonda mavjud kasblarning qisqacha tavsiflari bo'lgan to'plamlar; -“Mehnat yo'lini tanlash”, “Mening kasbim-eng yaxshi kasb” mavzusidagi kinofil'mlar; -reklama qilinadigan televizion filmlar, sexlar, o'quv yurtlaridan olingan televizion reportajlar; -kasblar musobaqa ilg'orlari to'g'risida radioeshtirishlar, kasb-hunar kollejlari yoshlarining turmush va o'qishi haqidagi hikoya qiluvchi jumhuriyat va mahalliy ro'znomalarda bosilgan maqolalar; shahar kinoteatrlari voqeialarida, magazinlarning vitrinalarida, katta ko'chalarning chorrahalarida ishchi kasblarini targ'ib qiluvchi stendlar va ko'rgazmalar; -ko'chalar va maydonlardagi yoshlarni kasb-hunar kollejlariga o'qishga kirishga da'vat etuvchi yorqin bo'yoqli chaqiriqlar.

Maktab kasbga yo'naltirish ishi sistemasini tarkib toptirish hali nihoyasiga yetkazilgani yo'q. Kasbga yo'naltirish sistemasi tarkibiy tuzilishi kasbga yo'naltirish maqsad va vazifalarini: - ya'ni maktab ta'lim bosqichlari bo'yicha uning mazmunini: -bazaviy korxonalar, ota-onalar jamoatchiligi ishtirokidagi kasbga yo'naltirish ishining yo'nalishlarini; -kasbga yo'naltirish tadbirlarini

amalga oshirish shakllari, metodlari va vositalarini; -muayyan ishchi kasblari bo'yicha umumli mehnatda maktab yoshlari ishtirokining aniq yo'llarini o'z ichiga olishi lozim¹.

Umum o'rta ta'lim maktabida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishni rivojlantirish quyidagicha bosqichma-bosqich amalga oshiriladi, bular:

- I. Xalq xo'jaligi tarmoqlari bilan umumiy tanishtirish.
- II. Ishlab chiqarish texnikasi, texnologiyasi va iqtisodiyotni umuman o'rganish.
- III. Kasblarning asosiy guruhlarini bilan tanishtirish.
- IV. Viloyat, tuman xo'jaligi biron tarmog'ining, bazaviy korxonaning tanlangan ishchi kasbini dastlabki egallash bosqichlaridir.

Kasbga yo'naltirish maktab sistemasining asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

a) kasbga yo'naltirish har tomonlama kamol topgan, faol shaxsni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning rejali ravishda amalga oshiriladigan uzviy qismi sifatida;

b) ijtimoiy ishlab chiqarishning haqiqiy talabi asosida mehnat yo'lini tanlashning shaxsiy va ijtimoiy muammosini to'g'ri hal qilish;

v) kasbga yo'naltirishning og'zaki metodlarini atrof-tevarakdagi korxonalar yetakchi ishchi kasblari asoslarini egallash borasidagi konkret amaliy harakatlar bilan qo'shib olib borish;

g) maktabdagi barcha darslarda yuqoriga ko'tarilib boruvchi chiziq bo'yicha kasb maorif va kasbni targ'ib qilishning pog'onali tuzilishi;

d) maktab, oila va ishlab chiqarishning birgalikdagi kuch g'ayratlari bilan ishchi kasblariga qiziqishni tarbiyalashning faol metodlari.

Namunaviy dastur talablariga muvofiq har bir o'quv fani bo'yicha darslar mazmunini hisobga olib, kasbga yo'naltirishni sinfdan sinfga rejalashtirish masalalari eng murakkab ishdur.

¹www.ziyoistagan.uz

Ommaviy maktablarda kasbga yo'naltirishning amaliy vazifalarini hal qilishga sistemali yondashish usuli qo'llaniladi. Kasbga yo'naltirishning sinflar bo'yicha asosiy mazmuni quyidagicha bo'lishi mumkin:

Boshlang'ich sinflarda: atrof-tevarakdagi mahalliy ishlab chiqarish korxonalari va tabiatdan foydalangan holda mehnat faoliyati turlari bilan tanishtirish.

O'rta sinflarda: umumiy ta'lim turkum o'quv fanlari darslarida og'zaki metodlari yordami bilan hamma ishlarni o'z ichiga oladigan va birga qo'shilgan kasblarning asosiy guruhlarini bilan mehnat ta'limi darslarida esa metall ishlash, elektrotexnika, yog'ochga ishlov berish kasblari mehnat usullari bilan ko'rgazmali tanishtirish.

Yuqori sinflarda: aniq ishchi kasblari asoslarini egallagan holda ishlab chiqarishning aniq sohalari negizida kasbga yo'naltirish.

Shunday qilib, ko'rib chiqilgan maqsadli kasbga yo'naltirish maktab sistemasi mazkur muammoning hamma jihatlarini qamrab olish imkonini yaratadi, hozirgi sharoitda tuman, shahar, viloyat va jumhuriyat doirasidagi yangi ijtimoiy - iqtisodiy tafakkur asoslarini hal qilishni hisobga olib, uni takomillashtirish yo'llarini belgilashga yordam beradi. Bu qiziqish vaqtlar o'tgan sayin o'quvchi ulg'aygan sayin aniqlashib, nixoyat reallikka ya'ni, uning kalbiga yokkan kasbini O'quvchi tomonidan tanlanishiga olib keladi.

Yuqorida aytib o'tilgan tadbirlar o'quvchining aniq bir kasbini tanlashini ta'minlashda to'liq kafolat bo'lla olmaydi. O'quvchi shu kasbini o'z ko'zi bilan kurishi, uning ish sharoitlari bilan tanishishi, shu kasb egalari bilan uchrashishi kabi boshqa tadbirlarda ishtirok etishi lozim bo'ladi.

Maktab kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassis tomonidan o'quvchilarni kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish, kasblar haqidagi ma'lumotlarni to'liqroq anglab yetishi shuningdek, ularning kasb tanlashlardagi reallikni vujudga keltirish maqsadida:

1. Maktabda ilg'or kasb egalari, kasb faxriylari, kasb sulolalari bilan uchrashuvlar;

2. Davra suxbatlari;
3. Kechalar;
4. Ma'ro'zalar tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ushbu tadbirlar o'quvchining shu kasbga bo'lgan qiziqishini yanada qattiylashishini vujudga keltiradi. O'quvchi o'zi qiziqqan kasbi haqida albatta, o'z ota-onasiga aytishi tabiiydir. Bu maqsadda ota-onalar bilan o'z farzandini kasbiy qiziqishini aniqlaydigan suxbat, so'rovnomalar o'tkazilishi foydalidir.

Kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassis maktab O'quvchilarining kasbga bo'lgan qiziqishi va moyilliklarini yanada rivojlantirish maqsadida xududdagi mavjud bo'lgan korxona, tashkilot va muassasalarga rivojlantiruvchi ekskursiyalar uyushtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchi 9-sinfga borganidan yakuniy psixolog-pedagog va kasbiy tashxisidan o'tkazilib, uning «Tashxis haritasi» asosida aniqlangan qiziqishi, moyillik va layoqadlar tizimi taxlil etilib, O'quvchining eng so'nggi kasbiy yo'nalishi aniqlanadi va maktabda tashkil etilgan tavsiyanomalar berish bo'yicha xududiy komissiya qaroriga asosan O'quvchiga akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlariga yo'naltiruvchi tavsiyanoma beriladi. Maktabda tashkil etilgan xududiy komissiya¹ning raisi maktab direktori hisoblanadi¹. Komissiya tarkibiga maktab direktorining ma'naviy ishlari bo'yicha o'rinbosari, maktab kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassisi, bitiruvchi sinflarning sinf raxbalari, ota-onalar kumitasi, xududiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari vakillari keltirilishi mumkin. Komissiya maktabdagi barcha bitiruvchi 9-sinf o'quvchilariga tavsiyanomalarni berib bo'lgandan so'ng, xududiy komissiyalar faoliyat to'g'risidagi yo'riqnomada ko'rsatilgan hisobot shakli asosida tuman (shahar) tashxis markaziga yo'nalishlari kesimida ma'lumot beradi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazi va uning xududiy boshqarmalari kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida o'zining aloxida o'rni topib olishi lozim. Amaldagi mavjud bo'lgan va ya'ni

¹Xodjabayev A.R. Ikromov A.I. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari rahbarlarining bozor iqtisodiyoti sharoitida raqbarlik maqoratini shakllantirish. –T.:2004y 174 b

paydo bo'layotgan tayyorlov yo'nalishlari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari, ularning xududiy joylashi, tayyorlov yo'nalishlari va kasb-hunarlar, ularning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni. Har xil kasb yoki mehnat faoliyatining o'ziga xos jozibasi va nufuzi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tashxis Markazlarini, eng muximi har bir maktabni qurollantirib borishi lozim.

Xududlardagi mehnat bozori, kasb-hunarlarga bo'lgan extiyojlarini o'rganish jarayoni yo'lga qo'yilishi lozim, bu yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishda va mamlakat mehnat bozoriga malakali mutaxassislar yetkazib berishda nixoyatda muximdir.

Bundan tashqari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'zlarining ta'lim xizmatlari marketingini tashkil qilishi va umumta'lim maktablari o'quvchilari bilan tegishli targ'ibot ishlarini yo'lga qo'yishi, kasbga yo'naltirish xonalarini jixozlashga amaliy yordam ko'rsatishi lozim.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda maktab, kasb-hunar kollejlari, maxalla fuqarolari yig'inlarining o'zaro xamjixatligi juda katta axamiyat kasb etadi.

Kasbga yo'naltiruvchi mutaxassis maktab ma'muriyati bilan birgalikda noan'anaviy sayoxat darslarini tashkil etib o'quvchilarni har xil soxaviy kollej, korxona, faoliyati, yo'nalishi va xayoti bilan tanishtirishi, u yerda ilg'or ishchilar bilan har xil mavzularda uchrashuvlar o'tkazishlari lozim¹.

Kasbga yo'naltiruvchi mutaxassisi, psixolog va fan o'qituvchilari uzviy muloqatda ish olib borishlari talabga muvofiqdir. Masalan: mehnat ta'limi darsida o'quvchi o'zi qiziqadigan yoki layoqati bor kasbini to'la namoyon eta oladi, xamda u dars davomida «Duradgorlik», «Pazandachilik va oshpazlik», «Tikuvchilik va bichuvchi», «Avtochilangarlik» shuningdek, matematika darsidan hisobchi, ona tili va odobnoma darsida «tarbiyachi-muallim pedagog» kasbga moyilligi borligini ko'ramiz. Ayni vaqtda shu dars muallimi sinf raxbari o'quvchiga kasb madaniyati bilan birga tashxis berib borishi kerak.

¹Sharipov Sh.S. Maktab o'quvchilari ijodkorlik faoliyatini tashkil qilish usullari. –T.: “O'qituvchi” 2003 yil.

Maktab ota-onalar yig'ilishi kasb-hunar kollejlari, akademik litsey xodimlar bilan birgalikda olib borishlari maqsadga muvofiq. Chunki, O'quvchi ota-onasi xamkorligida kasblar haqida axborot oladi va uni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Oiladagi o'zaro xamkorlik to'la xolda kasbni tanlash imkoniyatini yaratib bersagina shunda o'quvchida kasb moyilliga paydo bo'ladi.

Bu O'quvchilarni qiziqqan yo'nalishi va kasbi bo'yicha o'qishga qabul qilganimizda, maxalla fuqarolari yig'ini tomonidan ma'lumotnoma olamiz, shuning uchun o'quvchi maktabni tamomlab, qaysi kasb - hunar yoki akademik litseyda o'qishni davom ettirganligihaqida ma'lumot maxalla fuqarolar yig'inida xam saqlash maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish uzviyligi mamlakatimizdagi yangi ta'lim tizimini islox etishda o'z samarasini beradi. Har bir kasb-hunar kollejlari o'rtasida raqobatni yuzaga keltiradi. Qaysi kasb hunar kollejining bitiruvchisi ko'proq ishga joylashsa yoki o'z mutaxassisligi bo'yicha oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirsa, shu kasb-hunar kollejining viloyat yoki respublika miqyosidagi reyting ko'rsatkichlari oshib borishga imkon yaratiladi. Shu bilan birga biz kelajak avlodni hayotda o'z o'rnini topishga, vatanimizning ravnaqini yanada oshirishga xissa qo'shgan bo'lamiz. Kasbga yo'naltiruvchi mutaxassisning faoliyati maktabning amaliyotchi psixologi faoliyat bilan bog'langan xolda tashkil etilishi lozim. Maktab amaliyotchi psixologik metodika, so'rovnoma va qo'llanmalarni o'tkazish asosida ularning nimalarga qiziqish, nimalarga moyilligi va nimalarga layoqati borligini aniqlaydi va o'quvchining «Tashxis haritasi»ga yozib qo'yadi.

Kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassis o'quvchilarning «Tashxis haritasi»dagi mavjud yozuvlar bilan tanishganidan so'ng aniqlangan qiziqish, moyillik va lokaydlar asosida ularni kasb va hunarlarga yo'naltirish kasb va hunarlar haqida ma'lumot berish va mazkur kasb va hunarlarning tasniflari bilan tanishtirish, bu kasb va hunarni qayerlarda egallash mumkinligi va boshqa ma'lumotlar bilan tanishtiradi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazi va uning xududiy boshqarmalari kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida o'zining aloxida o'rmini topib olishi lozim. Amaldagi mavjud bo'lgan va ya'ni paydo bo'layotgan tayyorlov yo'nalishlari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari, ularning xududiy joylashi, tayyorlov yo'nalishlari va kasb-hunarlar, ularning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni. Har xil kasb yoki mehnat faoliyatining o'ziga xos jozibasi va nufo'zi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tashxis markazlarini, eng muximi har bir maktabni qurollantirib borishi lozim.

Xududlardagi mehnat bozori, kasb-hunarlarga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganish jarayoni yo'lga qo'yilishi lozim, bu yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishda va mamlakat mehnat bozoriga malakali mutaxassislar yetkazib berishda nixoyatda muximdir.

Bundan tashqari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'zlarining ta'lim xizmatlari marketingini tashkil qilishi va umumta'lim maktablari o'quvchilari bilan tegishli targ'ibot ishlarini yo'lga qo'yishi, kasbga yo'naltirish xonalarini jixozlashga amaliy yordam ko'rsatishi lozim¹.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda maktab, kasb-hunar kollejlari, maxalla fuqarolari yig'inlarining o'zaro xamjixatligi juda katta ahamiyat kasb etadi.

Kasbga yo'naltiruvchi mutaxassis maktab ma'muriyati bilan birgalikda noan'anaviy sayoxat darslarini tashkil etib o'quvchilarni har xil soxaviy kollej, korxona, faoliyati, yo'nalishi va xayoti bilan tanishtirishi, u yerda ilg'or ishchilar bilan har xil mavzularda uchrashuvlar o'tkazishlari lozim.

Kasb-hunar kollejiga qabul qilingan O'quvchiga kasbini o'rgatish, izlanuvchanlik va ijodkorligini orttirish, kollejning muxandis pedagoglar zimmasida bo'lib, ular o'zlarining kasb hunar maxoratlarini o'qituvchiga to'la namoyon eta olishi kerak. O'quvchilarning kasb hunarga kollejlari tamomlagach,

¹Xodjabayev A.R. Ikromov A.I. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari rahbarlarining bozor iqtisodiyoti sharoitida raqbarlik maqoratini shakllantirish. –T.:2004y 174 b

korxonalarga ishga joylashishi yoki oliygox bakalavrga kirib o'qishni davom ettirishlari dolzarb masala hisoblanadi. Demak kollejning muxandis pedagoglari xududiy mehnat birjalari va oliygox ma'muriyatlari bilan uzviy aloqada bo'lishi talab etiladi.

Talabalarning o'qituvchilik kasbini tanlashi haqida.

O'qituvchi o'z shaxsiy namunasi, so'zi va ishlari bilan bolalarga o'tishi xayot sahifalarini ochib boradi, hozirgi kunimiz go'zalligini anglatib beradi, insoniyat kelajagi go'zalligini ko'rishga, xayotni bilish va unda o'z o'rnini tanishga o'rgatadi.

Har qanday kasb egasi xayot yo'lini maktabdan boshlaydi.

Hozirgi kunda 40 mingdan ortiq kasb bor bo'lib, o'qituvchi o'quvchilarga kasb tanlashga yordamlashadi. (Kasbni to'g'ri va noto'g'ri tanlanishi oqibatlari).

Pedagogoglar kimlar - o'qituvchilar, bolalar bog'chalari tarbiyachilari, pionerlar uylari va saroylari, maktabdan tashqari tarbiya muassasa xodimlari, militsiya, kuni uzaytirilgan gruppalar tarbiyachilari va xakoza. Bunga ota-onalarni ham ko'shsak pedagogik bo'lmagan, tarbiya bilan shug'ullanmagan birorta odamni uchratish qiyin¹. Pedagog - bu kasb insonga xos hamma talant va iste'dodlarni o'zida mujassamlashtiradi va qamrab oladi. O'zingizda bor bo'lgan barcha talant va iste'dodlaringizni bolalarga bag'ishlang.

Pedagog bo'lib tug'ilish mumkin emas, pedagogik faoliyat jarayonida shaxs pedagogga aylanishi kerak.

Iste'dodli pedagog bu vatanga, insonga, bolalarga otashin muxabbati bo'lgan, pedagogik mahoratni yuksak darajada egallagan o'qituvchidir. L.N.Tolstoy fikri: Agar o'qituvchida faqat o'z ishiga nisbatan muxabbat bo'lsa, u yaxshi o'qituvchi bo'ladi. Agar o'qituvchida faqat bolaga nisbatan ota-onadagi kabi muxabbat bo'lsa ham o'quvchilarni sevmaydi, uning ishga xafsalasi bo'lmaydi. Bordiyu o'qituvchi o'zida ishga nisbatan ham, o'quvchilarga nisbatan ham muxabbatni mujassamlashtirgan bo'lsa, bunday o'qituvchi kamolatga yotgan bekamu ko'st o'qituvchidir.

¹Sharipov Sh.S va b. Kasbiy pedagogika (metodik qo'llanma) T. TDPU 2006 y 56-b

O'qituvchilik ixtisosiga kirish kursi vazifalari:

Mehnat va kasb.

Jamiyatimizda insonni mehnatiga qarab baholaymiz, chunki shaxsning mohiyati, uning ma'naviy boyligi faqat mehnatda, mehnatga bo'lgan munosabatida yaqqol namoyon bo'ladi. Mehnat insonning taqdiri, qismati, nasibasidir. O'z mehnatini, kasbi korini sevgan kishigina xaqiqiy baxtiyor bo'ladi.

Istagan kasb-ixtisos egasidan o'ziga yuklatilgan mehnat topshirig'ini shunchaki bajarish emas, balki ustalik va mahorat bilan bajarish talab qilinadi. Ixtisos mahorati - bu yuqori darajada rivojlangan tashabbus, ixtisos tayyorgarligi va yuksak siyosiy darajadir. Ixtisos bilan bog'lik mehnatda odam o'zi o'qigan vaqtidagi bilimi va amaliy faoliyatida egallagan malakalarga suyanadi. Ixtisos shaxsning xulqiga, fikrlariga dunyoqarashiga, hatto tashqi qiyofasiga ham ta'sir qiladi. Fan va texnika rivolyutsiyasi barcha mehnat va ixtisoslarga bir qator talablar qo'yadi.

- barcha sohadagi ishlayotgan kishilar umumma'lumot daraja oshirish;
- fan va texnikani rivojlantirish;
- mehnatga ilmiy bilimlar ta'sirini orttirish;
- ilmiy texnik informatsiyalarni tez surat bilan orttirish;
- hozirgi zamon texnikasini qo'llanish;
- bilimlarni yangilab, to'ldirib borish;
- moddiy farovonlikni oshirish, bo'sh vaqtni ko'paytirish.

Hozirgi kundagi taraqqiyot o'qituvchilik kasbiga bo'lgan talabni orttirib bormoqda.

O'qituvchiga qo'yiladigan talablar.

1) O'qituvchi qaysi predmetni o'qitishidan qat'iy nazar o'z mamlakati siyosatiga oid bilimlarga suyanishi kerak. Demak u o'z siyosiy darajasini oshirish ustida muntazam ish olib borishi kerak.

2) O'qituvchi o'z predmetini chuqur bilishi kerak. Buning uchun shu fan oldida turgan muammolar, olib borilayotgan ishlardan xabardor bo'lishi, fanlar

o'rtasida aloqani egallagan bo'lishi kerak. Bunga maxsus metodik va ilmiy-ommabop adabiyotlarni o'qib borish bilan erishadi.

3) O'qituvchi o'z ishida yuksak pedagogik mahoratni namoyish qilishi kerak. A.S.Makarenko: Agar o'qituvchi yalqov va xafsalasiz bo'lmasa har bir o'qituvchi albatta mahoratga erishadi».

O'qituvchining pedagogik odobi.

O'qituvchi ma'lum odob qoidalariga amal qilishi kerak. Bu kasbga oid odob qoidalari bo'lib, buni egallagan o'qituvchi o'quvchilar bilan muomalada to'g'ri yo'l topadi, o'quvchiga ishonadi, adolatli, rostgo'y muomalada sohtalikka, sun'iylikka, munofiqlikka yo'l ko'ymaydi, janjalli vaziyatlar kelib chiqishi oldini oladi. O'qituvchining jamiyatdagi o'rni, uning o'quvchilar, ota-onalar bilan aloqasi o'z xususiyatiga ega. O'qituvchi o'quvchilar bilan aloqada vujudga keladigan turli vaziyatlardan oson chiqishi, o'z xislarini idora qila olishi, aql bilan ish ko'ra olishi, har bir bola psixik xususiyatini, sharoitini xolatini, bolaning, sinfning ruhiyatini seza olishi uni hisobga olib ish ko'rishi kerak. U bolalar, o'smir va yoshlar taqdirini belgilaydi, ularga nisbatan beparvo, e'tiborsiz bo'lishi mumkin emas.

O'qituvchining asosiy fazilati bolalarni hurmat qilishidir. O'qituvchi o'quvchini na so'z bilan, na harakat va na nigoh bilan xaqorat qilmasligi kerak. O'qituvchi o'z irodasi bilan bolalar irodasini, o'z xususiyatlari bilan bolalar xususiyatini tarbiyalaydi.

O'qituvchining shaxsiy sifatleri:

G'oyaviy siyosiy ongi va madaniy darajasi yuksak rivojlangan, ijtimoiy aktiv, o'z ishida yangiliklarga intiladigan, bolalar bilan ishlash extiyoj kuchli, har doim qat'iy, pedagogik odobi yuqori, pedagogik muloxazasi kuchli, talabchan o'z-o'zini to'g'ri baholay oladi.¹

O'qituvchi kasbiy faoliyatiga tavsifnoma.

O'qituvchining shaxsiy sifatleri.

V.A.Suxomblinskiy aytishicha tarbiya ishida vujudga keladigan qiyinchiliklarning asosiy sababi shundaki, ko'pincha tarbiyalanuvchilarga taklif

¹www.fikr.uz

uchun ko'rsatiladigan ideal faqat so'zda bo'lib, o'qituvchi shaxsiy fazilatlari bu sohada andoza bermaydi. O'qituvchi o'zi propoganda qilayotgan ideal fazilatlarini shaxsiy namunasida ko'rsatishi kerak.

O'qituvchining eng muhim fazilati balalarga mehr-muxabbatdir. Bu bolalarning hamma qiliq-qilmishlarini kechirib ularga xushomadgo'ylik emas, balki talabchanlik va qattiqqo'llik bilan birga qo'shilgan mehr muxabbatdir.

Ijtimoiy aktivlik va grajdan yetukligi o'qituvchi shaxsiga xos sifat, xaqiqiy pedagog jamoati bo'lib, bolalarga xayotda aktiv pozitsiyada turishning amaliy namunasini ko'rsatadi.

O'qituvchining muhim fazilati - kishilar bilan tez muomalaga kirishib keta olishi bo'lsa, ko'pchilikka aralasha bilish dilkashlik bo'lib, bu uning aloqa madaniyati yuksakligini ifodalaydi.

O'qituvchi shaxsiga xos yana bir sifat - insonga, bolaga bo'lgan ishonch, o'z ishining to'g'riligiga, uning foydali ekanligiga ishonchi komilligi.

O'qituvchining ijob qilishga intilishi, yangiliklarni kashf eta bilishi, suhbatda yangi fikrni bayon qila bilishi, ishga yangilik kiritib shijoat ko'rsata olishi muhim fazilatidir. O'qituvchi ochiq ko'ngil, qat'iy bo'lishi, o'zini tuta bilishi, bardoshli bo'lishi, qiyinchilik oldida esankirab o'zini yo'qotib, muomalada qo'pollik qilishdan saqlanishi, o'ziga va bolalariga nisbatan talabchan bo'lib, o'z shaxsiga tanqidiy nuqta nazardan qaray olishi kerak.

O'qituvchi bilimlari.

1. Tarbiya protsessining nazariy va metodik asosi.
2. O'z predmeti va uni o'qitish metodikasi.
3. Anatomiya va fiziologiya, gigiyena asoslari.
4. Psixologiya va pedagogika.
5. Siyosat, tarix, o'lkashunoslik, adabiyot, san'at etika, estetika, xuquq, fan, texnikaga oid umumiy bilimlar.

O'qituvchi malakasi.

Pedagogik malaka, egallagan bilim va ko'nikmalari asosida faoliyatning ma'lum to'rini uddalay olish, qila bilish, yaxshi bajara bilish qobiliyatidir.

Pedagogik odobga xos qoidalar:

- vadaning ustidan chiqish, soʻz berildimi bajarish;
- bolalarga ishonmoq;
- oʻz faniga nisbatan yuksak odob saqlamoq;
- optimist boʻlish;
- ish uchun foydali harakat odobdan, zarar keltirsa odobga xilof deb qarash;
- kasbdoshingizdan koʻra oʻzingizdan koʻproq talab qilish;
- bировlar kamchiliklarini kechira bilish kek saqlamaslik;
- oʻzingiz qanday boʻlsangiz shundayligingizcha yashash

Bufazilatlarni boʻlajak pedagoglarda qaror toptirish, kasbiy faoliyatlarida foydalanish maqsadga muvofiq hisbolanadi.

Xulosa

Kasbiy ta'lim o'qituvchisini tayyorlashda bir qator didaktik vazifalar hal qilinadi. Bu ularning eng muhimlaridan biri kollejdagi kasbiy ta'lim vazifalarini, kollej o'quv dasturlari mazmunini, ularning g'oyalari va tashkiliy prinsiplarini ochib berishdir. Buning muhimligi shundaki, kollejdagi kasbiy ta'limning vazifalari ham, kollej o'quv dasturlarining mazmuni ham doimo o'zgarib turadi. O'qituvchi shunga tayyor bo'lishi kerakki, u o'zining pedagogik faoliyati davomida kasbiy ta'lim mazmunini bir necha marta qarab chiqishga, yangi takomillashgan o'quv dasturlari bilan ishlashga to'g'ri keladi. Buni fan va texnika taraqqiyoti, mustaqil davlatimizning rivojlanish yo'li taqoza qiladi. Shu sababli kollejlarda rivojlanishi ma'lum davri uchun harakterli kasbiy ta'limining vazifalari va mazmunini shunchaki bilib, eslab qolishning o'zi kamlik qiladi. Ularning kelib chiqish sabablarini, ularning zahirada qanday metodologik va pedagogik yo'l-yuriqlar borligini ham bilib olish kerak. Shundagina kasbiy ta'limning vazifalari va mazmunidagi har qanday asosli o'zgarishlarni idrok qilish va tushintirish oson bo'ladi.

Kasbiy ta'lim vazifalari bilan mazmuni murakkab dialektik bog'liqlikda bo'ladi. Buni tushinib yetmoq uchun, shuni nazarda tutmoq kerakki, kasbiy ta'lim vazifalari turli darajada qo'yiladi va hal qilinadi.

Birinchi darajada kasbiy ta'lim kollej sistemasining elementi sifatida, ya'ni umumkollej vazifalarini bajarish vositasi sifatida qaraladi. Masalan, eng muhim umumkollej vazifasi yoshlarda keng dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. O'quv jarayonlariga ham, butun pedagogik jamoaning butun faoliyatiga ham ta'luqli bu vazifani beistisno hamma o'quv predmetlari amalga oshiradi.

Ta'limni unumli mehnat bilan qo'shish, mehnat tarbiyasi, o'quvchilarda kasbga qiziqishni shakllantirish kabi vazifalarini ko'pchilik o'quv fanlari kasbiy ta'lim bilan birgalikda amalga oshiriladi. Bu vazifalarni hal qilishda kasbiy ta'lim muhim rol o'ynaydi, chunki ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarida o'quvchilarni unumli mehnatga jalb qilish, hozirgi zamon ishlab chiqarishi bilan tanishtirish ularda ommaviy ishchi kasblarga muhabbat uyg'otish, kasblar haqida to'liq ma'lumolar berish uchun qulay sharoitlar vujudga keladi.

Birinchi darajadagi vazifalar bevosita halq ta'limi to'g'risidagi davlat siyosatidan kelib chiqadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi qarorlari, qonunchilik aktlari bilan belgilanadi. Kasbiy ta'limning mazmuni esa shu vazifalarga ko'ra belgilanadi. Lekin kollej ta'limi mazmuniga birinchi darajali vazifalar umumiy bo'lib, bevosita o'quv dasturlarini tuzishga imkon bermaydi.

Mazmunga nisbatan birinchi darajali vazifalardan kelib chiqadigan talablar ikkinchi darajali vazifalarni taqozo qiladi. Kasbiy ta'lim uchun spetsifik bo'lgan va kasbiy ta'lim doirasida hal qilinadigan vazifalarni quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Kasbga tayyorgarlik vazifalariga talabalar yosh xususiyatlarini hisobga olgan xolda yondashish:
2. Kasbga tayyorgarlikni takomillashtirishni kollejning ishlab chiqarish muhitini hisobga olgan xolda tashkil qilish:
3. Har bir talabani bir xil xajmdagi politexnik bilim va malakalar bilan qurollantirish:
4. Talabalar hozirgi-zamon ishlab-chiqarishi asoslari haqida bir xil bilimga ega bo'lishlari kerak va shu kabilar.

Yuqoridagi kabi talablar asosida o'quv dasturi tuziladi. Bunday vazifalarni bajarilishi o'quvchilarni kasga yo'naltirishni takomillashishiga katta turtki bo'lib qo'shiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Rasmiy manbalar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O‘zbekiston, 1992 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 1997-yil 29 avgust.
3. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: «Sharq» 1998
4. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” -T.: 1997-yil 29-avgust.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan islox qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to‘g‘risida”gi Farmoni. 1997-y 6-oktyabr.
6. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida o‘quv yurtlarida tarbiyaviy ishlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi 1998-yil 9-yanvar 3 sonli buyruq.
2. «Oliy ta’lim muassasalarining shaxsni kamol toptirishdagi vazifalari haqida»gi 2003 yil 10 oktyabr 91 sonli qarori. Oliy ta’lim. Me’yoriy-huquqiy va uslubiy xujjatlar to‘plami. -T.: «Istiqlol» nashriyoti, Bosh taxririya, 2004 yil.

Fanni o‘rganishda metodologik asos bo‘lgan asarlar.

- 1.Karimov.I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod siyosat, mafkura. Asarlar, 1-jild.-T.:O‘zbekiston, 1996.
- 2.Karimov.I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Asarlar, 2-jild. -T.:O‘zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. Asarlar, 6-jild.-T.:O‘zbekiston, 1998.

4. Karimov I.A Vatan ravnaki uchun har birimiz mas'ulmiz. Asardar 9-jild - T.:O'zbekiston,2001.
5. Karimov I.A Biz tanlagan yo'l-demoqratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan xamkorlik yuli. Asarlar, 11-jild -T.:O'zbekiston, 2003.
6. Karimov I.A O'zbek halki xech qachon xech kimga qaram bo'lmaydi. Asarlar 13-jild -T.:O'zbekiston, 2005.
7. Karimov I.A Inson, uning xukuk va erkinliklari-oliy kadriyat. 14-jild - T.:O'zbekiston, 2006.
8. Karimov I.A Ma'naviy yuksalish yo'lida. Tarix. Ma'rifat. Ma'naviyat.- T.:O'zbekiston, 1998.
9. Karimov I.A Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.:O'zbekiston, 2008.

Asosiy adabiyotlar.

1. Pulatov S.S. Yoshlarga hunaro'rgatishning milliy an'anaviy asoslari.- T.:1999. y
2. Pulatov S.S O'zbek halq amaliy bezak san'ati-T.: "Mehnat" 2001 yil.
3. Vorobyov A.I. mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llash metodikasi. - T.: «O'qituvchi» 1980 yil.
4. Davlatov K.D.Chichkov V.A O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash-T.: «O'qituvchi» 1988 yil.
5. Ishchi kasblari: Spravochnik, 2- kitob-T.: «O'zbekiston» 1991y
6. Ishlab chiqish asoslari. Kasb tanlash kurs metodikasi.- "O'qituvchi" 1989 yil
7. Tolipov U.K., M.Barakayev, Sh.S Sharipov. Kasbiy-pedagogika-T.:2001 yil.
8. Boltaboyev S. R.G Mullaxmetov, V.N. Sattorov Kasb tanlashga yo'llash-T.:2000 y.
9. Magzumov P.T. O'qituvchilarni mehnatga va kasb tanlashga tayyorlash.-T.: "O'qituvchi" 2002 y
10. Mazur V.A., Davidova L.G. Milliy hunarmandchiliqqa o'qitish jarayoni va uni tashkil qilish. -T.:1996 yil.

11. Txorjevskiy D.A. Mehnat ta'limi metodikasi. –T.:“O‘qituvchi” 1997 yil
12. Ochilov Z. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda kasbga yo‘llashning shakllantirish. –T.: “O‘qituvchi” 2002y
13. Shodiyev. N.Sh Studentlarga o‘quvchilarning kasb tanlashga yo‘llash ishlarini o‘rgatish. -T.:–“O‘qituvchi” 1997 yil.
14. Sharipov Sh.S. Maktab o‘quvchilari ijodkorlik faoliyatini tashkil qilish usullari. –T.: “O‘qituvchi” 2003 yil.
15. Andrianov.P.N. Maktab o‘quvchilari texnik ijodkorligini rivojlantirish. -T.:O‘qituvchi”1989 yil.
16. Tolipov. U.K., Karimov.I. Olimov.B. Mehnat va kasb ta'limida o‘qitishning faol usullaridan foydalanish. -T.:–“O‘qituvchi” 2003 yil.
17. Sharipov.Sh.S. O‘quvchi shaxsini rivojlantirish mezonlari. – T.:“O‘qituvchi”2002 yil.
18. Shodiyev N.Sh. Qishloq xujalik ishchi kasblari.–T.:“O‘qituvchi” 1989 yil.
19. Xayrullayev.M.M. Ma'naviyat yulduzlari.– T.:“Halq merosi” 1999 yil.
20. Yo‘ldoshevU.A., Po‘latova.M. Qorayev Z. Amaliy psixologning ish kitobi.Navoiy 2000 yil
21. Muslimov N.A Bo‘lajak kasb ta'limi O‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish.Monografiya.-T.: Fan, 2004.-127 b.
22. Xodjabayev A.R. Ikromov A.I. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari rahbarlarining bozor iqtisodiyoti sharoitida raxbarlik mahoratini shakllantirish.–T.:2004y 174 b
23. Sharipov Sh.S va b. Kasbiy pedagogika (metodik qo‘llanma) T. TDPU 2006 y 56 b
24. Ziyomammedov.B. M.Tojiyev. Pedagogik texnologiya zamonaviy o‘zbek milliy modeli.
- 25 J.G‘.Yo‘ldoshev. S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiyalar asoslari.-
- 26 Eshmuhamedov.R. Abduqodirov.A, Paralaev.A.Ta’limda innovatsion

texnologiyalr.

26 Eshmuhamedov.R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari.

28 P.Mavlonova, O.To'rayeva, K.Xoliqberdiyev. Pedagogika.–

29 X.Ibragimov, Sh. Adullayeva. Pedagogika nazariyasi..

30 Sh. Umarov. «Uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi». -T.:, 2005. (B.M.I.)

Internet saytlari.

www.google.uz

www.ziyonet.uz

www.fikr.uz

www.ziyoistagan.uz

www.gov.uz